

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
- MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**“GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI**



**“TUSHUNCHA” TAFAKKUR**

**SHAKLI SIFATIDA**

**(Uslubiy qo'llanma)**

**Toshkent – 2023**

Ushbu uslubiy qo‘llanma Universitet Ilmiy Kengashining 2023 yil 25 fevral 1-sonli majlis bayonida ma’qullangan va chop etishga tavsiya qilingan.

Mazkur uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2020 yil 25 avgustdagi 749-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Falsafa” fanining o‘quv dasturi asosida tuzildi. Ushbu uslubiy qo‘llanma, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim berayotgan professor-o‘qituvchilar va talaba yoshlar hamda mazkur fan bo‘yicha ishlayotgan tadqiqotchilarga, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlariga foydalanish uchun mo‘ljallangan.

**Tuzuvchilar:**

Nadirova Z.P. – f.f.n. dotsent  
Xakimova M.A. – katta o‘qituvchi

**Taqrizchilar:**

Nazarov Q.N. – TIQXMMI – MTU “Gumanitar  
fanlar” kafedrasi professori f.f.d  
R.O‘.Baratov – Toshkent davlat trasport universiteti  
«Ijtimoiy fanlar» kafedrasi dotsenti, f.f.n.

@ Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash instituti – Milliy  
Tadqiqot Universiteti, 2023 yil

## MUNDARIJA

1.	Kirish .....	5
2.	I bob. “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘qitishning nazariy masalalari .....	11
3.	1.2. Tushunchaning ta’rifi, tuzilishi va turlari .....	18
4.	II bob. “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘qitishning uslubiy jihatlari .....	33
5.	2.1. “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari.....	33
6.	2.2. “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzuidan o‘quv mashg‘uloti ta’lim texnologiyasi .....	44
7.	2.3. “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘qitishda uslubiy ko‘rsatmalar .....	49
8.	Xulosa va tavsiyalar .....	71
9.	Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati .....	74
10.	“Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari” mavzusini o‘rganish bo‘yicha glossariy .....	76

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”<sup>1</sup> gi Qonun shuningdek, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirishda talaba-yoshlarning mantiqiy fikr yuritish madaniyatini rivojlantirish, xususan, ularning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiq ilmini o‘qitishning dolzarbligi o‘quv jarayonida yangi axborot va pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishi va umuman, ko‘z o‘ngimizda axborot sivilizatsiyasining shakllanayotgani bilan yanada ortadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “...mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir”<sup>2</sup> – deb ta’kidlaydilar.

Mazkur vazifani hal etishning samarali vositalaridan biri talabalarning umummantiqiy metodlarni va tafakkurning qonunlarini yaxshi bilishi, tafakkurning asosiy shakllaridan biri tushuncha va uni shakllantiruvchi mantiqiy usullarini o‘zlashtirishiga erishishdan iborat.

Oliy ta’lim jarayonlarini zamon talablari asosida tashkil etishda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun<sup>1</sup> shuningdek, turli qonun osti xujjatlari, jumladan farmonlar, farmoyishlar, qarorlar va buyruqlar o‘ziga xos normativ xujjatlar sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Ular asosida yangi avlod o‘quv dasturlari, darsliklar va qo‘llanmalar yaratilishi davom etmoqda. Mantiq fanining nazariy-metodologik va ilmiy-uslubiy muammolari, fanni o‘qitishdagi innovatsiyalar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, tayyorlanayotgan keyslar, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tomonidan yangi talablar asosida o‘rganilmoqda. Ushbu jihat mantiq ilmining o‘qitilishida ham ilg‘or ta’lim texnologiyalaridan yanada samaraliroq foydalanishni taqozo qilmoqda. Shundan kelib chiqadiki, mantiq fanini o‘rganishga oid zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020 yil 19 may

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 30 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T: “O‘zbekiston”, 2020.13-bet

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan oliy ta’lim tizimi uchun xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlar harid qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Bularning barchasi ta’lim sifatini yaxshilash uchun “Mamlakatimiz va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohatlarimiz samarasini bilan chambarchas bog‘liq. Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishimiz, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o‘quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”<sup>1</sup>

Ta’lim sifatini yanada yaxshilash lozim bo‘lgan fanlar sirasiga falsafa fani ham kiradi. Biz endi qotib qolgan an’anaviy usullardan qochib, pedagogik texnologiyalarga asoslangan, interfaol metodlar asosida ishlab chiqilgan fan dasturlarini yaratishimiz lozim bo‘ladi. Bu yerda biz albatta fanning dolzarbligi va ahamiyatini esdan chiqarmasligimiz kerak. Talabalarga “Mantiq” fanini o‘qitishdan maqsad ularni to‘g‘ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonun-qoidalari bilan tanishtirish asosida mantiqan izchil, asosli muhokama yuritishga o‘rgatish, aniq fikrlay oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ularda yangi turmush va tafakkur tarzini qaror toptirish va shu tariqa yetuk mutaxassis bo‘lishlari, yangi demokratik jamiyat qurishning faol ishtirokchilariga aylanishi uchun zarur nazariy tayyorgarlikka va amaliy ko‘nikmalarga ega bolishlariga erishishlari talab etiladi.

Bu fanni o‘qitishda quyidagilarga e’tibor berissh o‘rinlidir: ***birinchidan***, talabalarga to‘g‘ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qoidalari o‘zlashtirishga yordam berish, ularning mustaqil fikrlash madaniyatini yuksaltirish; ***ikkinchidan***, xato fikrlarning paydo bo‘lish sabablari bilan tanishtirish, ularning oq-

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T: “O‘zbekiston”, 2019.8-bet

qorani tushunib yetishiga, buzg‘unchi g‘oyalar bilan yaratuvchi g‘oyalarni ajrata oladigan bo‘lishiga erishish; ***uchinchidan***, ularni xulosaviy bilimlar hosil qilish, muammolarni yaratish va hal etish, farazlarni ilgari surish va asoslash usullari, qoidalari bilan tanishtirish; ***to‘rtinchidan***, talabalarga muloqatda bo‘lish va, ayniqsa, savol-javob qilish, babs yuritish sir-asrorlarini o‘rgatish; ***beshinchidan***, ularni ilmiy bilimlarning mantiqiy tuzilishlari hamda ilmiy nazariyalarning mantiqiy qurilishi bilan tanishtirish va boshqalar iborat.

Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar”. Darhaqiqat, mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. “Yoshlarimizning xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo‘lishlari maqsadga muvofiq. Bu ularning o‘z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etishlari uchun katta imkoniyat yaratadi”. Shu boisdan ham bugungi kunda yoshlarning falsafiy dunyoqarashini shakllantirish, o‘z fikrlarini mantiqiy tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirish hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida falsafa fanini dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Uslubiy qo‘llanmaning ob’yektini oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalaarni falsafafani hamda mantiq fanining o‘qitilishi bo‘yicha tayanch OTM bo‘lgan universitetlarda tayyorlanayotgan fan dasturlari asosida, fanga oid nazariy-metodologik, ilmiy-uslubiy ishlarni amalga oshirishda iborat. Predmetini esa mantiq fanida o‘qitilayotgan “Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari” mavzusinining mazmun – mohiyatini o‘rganish hamda uni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish hamda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida mantiq fanining o‘qitilishida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va samaradorligini o‘rganish hisoblanadi.

Ushbu vazifani amalga oshirish orqali fanni o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb ilmiy-uslubiy masalalarini tahlil etish, mantiq ilmining “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘rganishning nazariy va uslubiy masalalari misolida tushunchaning mazmuni, tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallar va tushuncha turlari bo‘yicha didaktik metodlar asosida bu mavzuni darslarda samarali yoritish maqsadida amaliy tasiyalar ishlab chiqish.

Uslubiy qo‘llanma maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Birinchidan; oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan Mantiq fanining qonunlarini nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish;

Ikkinchidan; “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘rganishning nazariy va uslubiy asoslarining mazmun-mohiyatini ochib berish;

Uchinchidan, tushunchaning ta’rifi, tuzilishi va turlarini o‘rganishning ahamiyatini ko‘rsatish.

To‘rtinchidan, “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning afzallikkari haqida ma’lumot berish.

Beshinchidan, “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘qitishda uslubiy ko‘rsatmalardan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur uslubiy qo‘llanmani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 martdagи “2021 - 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagи “Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkiletish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2017 yil 16 fevraldagи “Oliy o‘quv yurtlaridan keyingi ta’lim tizimini yanada

takomillashtirish to‘g“risida”gi Farmoni hamda mavzuga oid boshqa me’yoriy - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda doir ba’zi ma’lumotlardan foydalanildi.

Uslubiy qo‘llanmaning nazariy va amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, tadtiqot mazmuni va natijalari, olingan xulosalar mantiq fani bo‘yicha ta’lim jarayonida ilmiy-uslubiy materiallar mazmunini boyitishda ishlatalishi mumkin. Amaliy tavsiyalardan esa, oliy ta’lim muassasalarida mantiq fanini o‘qitishni yanada takomillashtirish uchun foydalanish imkonibor.

Uslubiy qo‘llanmaning tuzilishi: kirish, ikki bob, to‘rtta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

## **I BOB. “TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRUVCHI MANTIQIY USULLAR” MAVZUSINI O‘QITISHNING NAZARIY MASALALARI**

### **1.1. Tushuncha tafakkurning mantiqiy shakli sifatida.**

Tushunchaning mazmun va mohiyati, uning tuzilishi, turlari va tushunchalarni shakllantiruvchi usullarni tadqiq qiladigan fan bu mantiq hisoblanadi. Ilmiy manbalarda «mantiq» arabcha so‘z bo‘lib, uning xalqaro muqobili sifatida “logika” termini ishlataladi. Logika yunoncha “logos” so‘zidan olingan bo‘lib, fikr, so‘z, aql, tushuncha, fan, qonun ma’nolarini ifodalaydi. Arabcha mantiq atamasi ham shu ma’nolarga ega.

Mantiq yoki logika termini ikki ma’noda ishlataladi:

1. Narsa va hodisalarning muayyan tartibi, bog‘lanishi, izchilligi, ular taraqqiyot qonunlarining o‘zaro bog‘lanishi (ob’yektiv mantiq yoki narsalar, tashqi dunyo mantig‘i) hamda tafakkur yordami bilan vujudga keladigan fikrlar, tushunchalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, bog‘lanish va izchillik (sub’ektiv mantiq yoki fikrlar mantig‘i) ma’nolarida. Tafakkur tashqi olamning inson ongidagi in’ikosi bo‘lganligi sababli ob’yektiv va sub’ektiv mantiq uzviy aloqadorlikni, birlikni tashkil etadi.

2. To‘g‘ri fikrlash, tafakkur qilish qonunlari, qoidalari, shakllari, usullari va metodlarini o‘rganadigan fan ma’nosida.

Mantiqning fan sifatidagi asosiy vazifasi haqiqiy bilimlarga erishish shart-sharoitlarini o‘rganish, fikrlash jarayoni tuzilishini tahlil qilish, to‘g‘ri muhokama yuritishning mantiqiy qoida va metodlarini ishlab chiqishdir.

Mantiqning ilmiy-tadqiqot ob’yekti bo‘lib bilish usuli sifatidagi inson tafakkuri hisoblanadi. Uning predmetini esa insonni o‘rab turgan tashqi olamni bilib olishga yordam beradigan tafakkur qonunlari, qoidalari, shakllari, usullari tashkil etadi. Mantiq ilmining o‘rganish ob’yektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» so‘zlarining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o‘rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo‘lgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida sub'ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi.<sup>1</sup> Barcha hollarda bilish insonning hayotiy faoliyati bilan u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan, uning ma’lum bir ehtiyojini qondirishi mumkin bo‘lgan narsalarni tushunib yetishga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Bilish jarayoni amalga oshirilar ekan, kishilar o‘z oldilariga ma’lum bir maqsadni qo‘yadilar. Ular o‘rganilishi lozim bo‘lgan predmetlar doirasi, tadqiqot yo‘nalishi, shakllari va metodlarini belgilab beradi. Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Bilish deb ob’yektiv olamning inson ongida aks etish jarayoniga aytiladi. Inson bilishi ikki shaklda sodir bo‘ladi: Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish – insonning sezgi organlari yordamida bilishi tashkil etadi. Abu Nasr Forobiyning bilish nazariyasida aqliy bilish ustuvorlik qiladi: «Dastlabki ma’lumot odamga tashqaridan sezgilar orqali keladi, keyin xotira va tasavvur ishga tushadi», – deb ta’kidlaydi.<sup>2</sup> Forobiy aqlning xususiyatini bir tomondan ruhiy jarayon sifatida, boshqa tomondan esa tashqi ta’sir, ta’lim-tarbiyaning natijasi tarzida izohlaydi.

Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya’ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon bo‘ladigan va shuning uchun ham inson bevosita sezaga oladigan belgilari haqida ma’lumotlar olinadi.

Hissiy bilish – buyum va hodisalarning tashqi, shakliy xossa-xususiyatlarining sezgi organlari yordamida aks etishi. U bilishning boshlang‘ich, quyi bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Niderland faylasufi Benedikt Spinoza (1632–1677) o‘zining bilishga oid asarlarida ratsionalizmni e’tirof etgan. U intellektual bilimni hissiy bilishdan ustun qo‘ygan. Haqiqatni bevosita mushohada qilish yoki aql intuiqiyasi – intellektual bilimning eng yuqori turi, deb hisoblagan. Spinoza bilishga jonli mushohada tarzida yondashadi, inson ongida narsa va hodisalarning oddiy va murakkab tasavvuri qay darajada ifodalanishiga ko‘ra inson o‘z tabiatidan, holatidan yuqoriroq, yuksakroq o‘ringa ko‘tarilishi haqida fikr yuritadi. Uning yozishicha, inson shunday zotki, unda

<sup>1</sup> Nazarov Q. Fafafa asoslari. –T.: O’FMJ, 2018. B.8

<sup>2</sup> Z.Nadirova. Intuitsiyaning ilmiy bilishdagi o’rni. Monografiya. T.: -2019. B.42

ko‘lam modusi – tanaga, tafakkur modusi – ruhga muvofiq keladi; har ikkala modus bo‘yicha ham inson tabiatning bir qismidir<sup>1</sup>. Spinoza intuiitiyani universal zaruriyatni anglash tarzida tushunadi: «Intuitiv bilish insonga butunlay boshqa imkoniyatlarni yaratib beradi. Bunday bilim insonning o‘ziga ham taalluqli bo‘lgan universal zaruriyatni anglashda ko‘maklashadi». Shu bois Spinoza intuiitiyani bilishning asosi deb hisoblaydi. Ayni paytda uni substansiya tarzida tushunadi: «Substansiya – tabiatni aqliy intuitiv bilish ayrim kishilarga o‘z affekt hislari ustidan hukmron bo‘la olish imkoniyatini beradi»<sup>2</sup>. Spinoza intuitsiyani bilishning «uchinchi xili», narsalarning mohiyatini qamrab oluvchi eng ishonchli bilim deb hisoblagan.

Hissiy bilish uch shaklda sodir bo‘ladi: sezgi, idrok va tasavvur.

Sezgi deb buyum va hodisalarning ayrim tashqi, shakliy xossalari (shakl, hid, rang, harorat va hokazolar)ning hissiy aks etishiga aytildi. Ilohiylik va insoniylikning tutashgan qismini aql deb atagan yunon faylasufi **Empedokl** (mil. av. 490–430) insonning bilish jarayoni sezgilardan boshlanadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, «ilk ma’lumotlar sezgi a’zolaridan olinadi va to‘g‘ridan – to‘g‘ri aqlga yetib boradi hamda jon o‘ziga nima zarur ekanligini sezgilar orqali aql vositasida bilib boradi»<sup>3</sup>. Bunda olimning «intuitsiya» tushunchasiga aql mushohadasi tarzida yondashganligini ko‘rish mumkin. Bilish jarayoni hissiy, aqliy va intuitiv bilishdan iborat bo‘lgani bois jonli mushohada va aqliy mushohadani qamrab oladi hamda intuitsiyada o‘z ifodasini topadi.

**Idrok deb sezgi organlari yordamida buyum va hodisalarning yaxlit, butun holda hissiy aks etishiga aytildi.**

Tasavvur deb sezgi organlari orqali hosil qilingan, bir vaqtlar sezilgan, idrok etilgan buyum va hodisalarning ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng yana xotirada tiklanishiga aytildi. **Abu Nasr Forobi** qadimgi yunon falsafasining ijod haqidagi tasavvurlarini rivojlantirib, uni insondagi bunyodkorlik, yaratuvchilik faoliyati bilan

---

<sup>1</sup> Qarang: Спиноза Б. Краткий трактат о Боге, человеке и его счастье; Трактат об усовершенствовании разума; Этика / Пер. с голл. и лат. – М.: Мир книги, Литература, 2007. – С. 212.

<sup>2</sup> Спиноза Б. Этика, доказанная в геометрическом порядке. – Ростов-на-Дону, 2001. – С. 201–202.

<sup>3</sup> Асмус В.Ф. Античная философия. 3-е изд. – М.: Высшая школа, 2001. – С. 101.

bog‘laydi. Alloma ijodning mohiyatini «ijod shunday ulug‘ fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak»<sup>1</sup>, deya ta’riflaydi.

Hissiy bilish cheklangan bilishdir. Chunki u buyum va hodisalarning faqat tashqi, shakliy xossa-xususiyatlarini aks ettirish bilan cheklanib, ularning mohiyati, ichki sabab va qonuniyatlarini olib berishga qodir emas. Shuning uchun u insonni qoniqtirmaydi. Inson hissiy bilishdan aqliy bilish sari ilgarilab boradi.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori - ratsional (lotincha ratio – aql) bilish bosqichi bo‘lib, unda predmet va hodisalarning umumiyligi, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlar aks ettiriladi. Aqliy (nazariy, mantiqiy bilish yoki abstrakt tafakkur) buyum va hodisalarning ichki sabab va qonuniyatlarini, mohiyati va mazmunini aql, tafakkur yordamida bilib olishdir. U bilishning oliy bosqichidir. Platonning shogirdi **Aristotel** falsafani tafakkur haqida fikrlash desa, neoplatoniklar bu holatni intellektual (aqliy) intuitsiya bilan bog‘laganlar<sup>2</sup>. Aristotel bilish jarayonida empirik va ratsional bilimlarning birligini ta’kidlagan. U nazarda tutgan bilish jarayoni ikki turga, ya’ni dialektik va apodeytik bilishga bo‘linadi. «Dialektik bilish – mulohazali, apodeytik bilish esa haqiqiy bilishdir»<sup>3</sup>. «Apodeytika» ishonch ma’nosini anglatuvchi tushuncha bo‘lib, uni falsafa va mantiqqa Aristotel qat’iy (sahih) ilmiy bilimni aniqlash maqsadida qo‘llagan. Aristotelning fikricha, mulohazali bilim qanchalik haqiqatga yaqinlashmasin, bari bir, haqiqiy bilimga tenglasha olmaydi. Aristotel haqiqiy bilim deganda, tajribani nazarda tutgan. Uning fikricha, tajriba fanning haqiqiy asosini aniqlovchi mezondir<sup>4</sup>.

Narsa va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori-ratsional bilish bosqichi bo‘lib, unda predmet va hodisalarning umumiyligi, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlar aks ettiriladi.<sup>5</sup> Tafakkur dunyoni, buyum va hodisalarni umumlashtirilgan, mavhum, bavosita timsollar, tushunchalar, hukmlar,

<sup>1</sup> Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy, 1993. – B. 29.

<sup>2</sup> Qarang: Бунге М. Интуиция и наука / Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1967. – С. 8-9.

<sup>3</sup> Аристотель. О памяти и воспоминании / Пер. и коммент. С. В. Месяц. Вопр. философии – 2004 – № 7 – С. 33-36.

<sup>4</sup> Аристотель. Метафизика. Переводы, комментарии, толкования. – СПб.: Эльга, Киев: Алетейя, 2002. – С. 40–41.

<sup>5</sup> Sharipova M. Fayzixo’jayeva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007. B.7-8.

xulosalar, nazariyalar va bilimlar orqali aks ettiradi Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Tafakkurda voqelik mavhumlashgan va umumlashgan holda in’ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o‘laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan fikran chetlashgan, mavhumlashgan holda, e’tiborimizni uning umumiyligi, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi.<sup>1</sup> Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilar) e’tibordan chetda qoldirgan holda, ular uchun umumiyligi, muhim belgilarni, masalan, ongga ega bo‘lish, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, «inson» tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiyligi belgilarni aniqlash predmetlar o‘rtasidagi munosabatlarni, bog‘lanish usullarini o‘rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o‘xhash va muhim belgilari ko‘ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarini bilish imkoniyati tug‘iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o‘rtasidagi muhim bog‘lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2. Tafakkur borliqni nafaqat bevosita, balki bilvosita tarzda ham aks ettira oladi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilishi mumkin. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab uning qanday muhitda tarbiya olganligi, qobiliyatiga qarab tafakkur rivoji haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqla, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo‘ladi.

3. Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo‘lmagan narsalar – yuqori darajada ideallashgan ob’yektlar (masalan, absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar)ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarining eng

---

<sup>1</sup> Sharipov M. Fayzicho’jayeva D. Mantiq. -T.: Universitet 2007. B.8-9.

murakkab xususiyatlarini o‘rganish, hodisalarni oldindan ko‘rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to‘lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o‘zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo‘lish shaklidir.

Tafakkur yoki mantiqning o‘ziga xos qonunlari mavjuddir. Mantiq qonunlari deb tafakkurning barcha shakllarida amal qiladigan umumiy, muhim, barqaror, zaruriy aloqa va bog‘lanishlar, talablar ifodasiga aytiladi.

Mantiq qonunlari ob‘yektiv xarakterga ega. Ular kishilarning xohish-irodasi, shaxsiy istagiga bog‘liq emas. Kishilar bu qonunlarni o‘zgartira olmaydilar. Ular bu qonunlarga itoat etishga majbur va burchlidirlar.

Mantiq qonunlari olamni bilish va o‘zgartirishda ulkan nazariy hamda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Mantiq qonunlari to‘rtadir:

1. Ayniyat qonuni.
2. Nozidlik qonuni.
3. Uchinchisini istisno qonuni.
4. Yetarli asos qonuni<sup>1</sup>.

Bu qonunlardan uchtasini (birinchi, ikkinchi va uchinchisini) o‘z davrida Aristotel kashf etib, fanga kiritgan edi. To‘rtinchi, ya’ni etarli asos qonunini G. V. Leybnits asoslab bergen edi.

Ayniyat qonuniga binoan, har bir tushuncha, hukm va xulosa konkret, muayyan, barqaror mazmunga ega bo‘lib, ular turli o‘rinlar va sharoitlarda bir necha bor takrorlansa ham, o‘zining asl ma’nosini yo‘qotmasdan, o‘z-o‘ziga teng, aynan bo‘lib qoladi. Formal mantiqning bu qonuni tushuncha va fikrlarni bir-biri bilan almashtirib va qorishtirib yubormaslikni, ularning har birini o‘z o‘rnida, o‘z ma’nosida ishlatalishni taqozo etadi. Aks holda tushuncha yoki fikr o‘zgarishi, chalg‘ishi, aralashib ketishi,

---

<sup>1</sup> Sharipov M. Fayzixo’jayeva D. Mantiq. -T.: Universitet 2007.

mulohazalar tarqoqligi, sochilib ketishi, masaladan chekinish va uni noto‘g‘ri qo‘yish kabi xatolar sodir bo‘ladi. Bularning barchasiga sabab fikr muayyanligi yoki qat’iyligining buzilishidir.

Ayniyat qonunining formulasi quyidagichadir: A-A. Masalan: To‘g‘ri tafakkur qilish, fikr yuritish qonunlari, qoidalari, shakllari, usullari va vositalari to‘g‘risidagi fan mantiqdir (A). Mantiq to‘g‘ri tafakkur qilish, fikr yuritish qonunlari, qoidalari, shakllari, usullari va vositalari to‘g‘risidagi fandir (A).

Nozidlik qonuniga binoan, ayni bir buyum yoki hodisa to‘g‘risida aytilgan ikki qarama-qarshi (kontrar) fikr, hukmlar ayni bir vaqtda va ayni bir nisbatda birdaniga chin bo‘lishi mumkin emas. Chunki ular o‘rtasida ziddiyat bor. Doim ulardan biri chin, ikkinchisi yolg‘ondir.

Ushbu qonun formal mantiqning fikr ziddiyatsiz bo‘lishi lozimligi to‘g‘risidagi talabini ifodalaydi. Fikrning ziddiyatsiz bo‘lishi uning muayyanligi, aniqligi, barqarorligi va izchilligini ta‘minlaydigan zaruriy shartdir. Masalan: Pomir tog‘i baland (A). Pomir tog‘i baland emas (Ā). Bu mulohazalardan birinchisi chin, ikkinchisi yolg‘ondir. Ularning ikkalasi ham bir vaqtda chin yoki yolg‘on bo‘lолmaydi. Formulasi: A-Ā.

Uchinchisini istisno qonuniga binoan, ayni bir buyum yoki hodisa to‘g‘risida aytilgan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki fikr, hukmlardan biri hamisha chin bo‘lib, ikkinchisi yolg‘ondir, ularning ikkalasining ham bir vaqtda va ayni bir munosabatda chin bo‘lishi mumkin emas. Demak, bu qonun ikki qarama-qarshi fikr, hukmlardan biri chin, ikkinchisi esa yolg‘on ekanligini tanlab olishni taqozo qilib, uchinchi – o‘rtanchi, oraliq yo‘l, imkoniyatni istisno qiladi. Boshqacha aytganda, uchinchisining bo‘lishi mumkin emas yoki uchinchisi yo‘q, berilmagan. Masalan: Uzoqdan ko‘ringan odam yo erkak, yo ayoldir. Aniq javobingni ayt: sevasanmi, sevmaysanmi? Bu mulohazalar berilgan ikki holatdan faqat bittasini tanlab olishni taqozo etadi, uchinchi yo‘l, holat esa bo‘lishi mumkin emas. Formulasi: A yo V, yo V emas.

Uchinchisini istisno qonuni nozidlik qonunini yanada rivojlantiradi. Agar nozidlik qonuni qarama-qarshi (kontrar) hukmlarga nisbatan amal qilsa, uchinchisini istisno

qonuni esa zid (kontradiktor) hukmlarga nisbatan amal qiladi. Shuningdek, nozidlik qonuni haqiqatni aniqlashning ikki qarama-qarshi yo'lini tan olib, ulardan biri chin, ikkinchisi yolg'on ekanligini ta'kidlaydi. Uchinchisini istisno qonuni fikrga jiddiy aniqlik kiritib, uchinchi, oraliq, o'rtancha yo'lning bo'lishi mumkin emasligini qayd qiladi. Mantiqning bu qonuni ham to'g'ri, izchil, xatosiz tafakkur qilish uchun katta ahamiyatga egadir.

Yetarli asos qonuniga binoan, har qanday chin, haqqoniy fikr, hukm, bilim asoslangan, isbotlangan, dalillangan bo'lishi, buning uchun esa ular yetarli, to'liq asoslar, dalillar, fikrlar, argumentlarga ega bo'lishi lozim. Demak, mulohazalar haqqoniyligini asoslash, isbotlashning yagona vositasi dalillar, asoslar, faktlar va argumentlardir. Asoslanganlik esa to'g'ri tafakkurning muhim talabidir. Zotan, asoslangan, isbotlangan fikr to'g'ri fikrdir. Asoslanmagan, isbotlanmagan fikr yolg'on, noilmiy fikr, xurofot, bid'at, bo'htondir.

Yetarli asos uchun olingan dalillar, faktlar miqdori o'r ganilayotgan ob'yektning tabiatini va xarakteriga bog'liqdir. Ular haddan tashqari ko'p ham yoki, aksincha, kam ham bo'lmasligi kerak. Eng muhimi, ular to'g'ri, haqiqiy, ob'yektiv, ishonarli bo'lishi lozim. Asoslar o'rtasida sabab-oqibat bog'lanishlari mavjud bo'lishi kerak. Formulasi: Agar V bo'lsa, unda uning A asosi ham bor.

Mantiq qonunlari o'zaro uzviy aloqadorlikda mavjud bo'ladi.

Mantiq keng ma'noda olamdagi qonuniy, zaruriy bog'lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurimizning ichki aloqadorligi, tadrijiy rivojlanishi, turli fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ifodalaydi. Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavhumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllarda, ya'ni tushuncha, hukm va hulosa chiqarish hamda ular o'rtasidagi aloqalar shaklida aks ettirib, ma'lum mantiqiy qonun – qoidalarni vujudga keltiradiki, to'g'ri, aniq, izchil, ziddiyatlardan xoli fikrlash ana shu qonun – qoidalarga amal qilishni taqoza etadi. Bu qonun-qoidalalar amaliyotda vujudga kelgan bilimlarni isbotlashga yoki rad etishga, ularning to'g'riliqi yoki xatoligini tasdiqlashga yoki inkor etishga xizmat qiladi.

Tafakkurni mantiq fanidan tashqari falsafa, fiziologiya, psixologiya, dialektika, kibernetika fanlari hamo'z predmeti nuqtai nazaridan o'rganadi. Grammatika mantiq

faniga yaqin. Tushuncha va hukmlarning ifodalanish strukturasini aniqlashda grammatikaning roli katta. Biroq yuqorida tilga olingen fanlarning har biri tafakkurga o‘z nuqtai nazaridan yondoshadi, uning turli qirralarini ochib beradi. Hozirgi kunda mantiq ilmining o‘zining ham turli yo‘nalishlari, tarmoqlari mavjud, ular orasida inson tafakkurini eng oddiy qonun – qoidalar bilan qurollantiradigan, uni to‘g‘ri fikrlashning tamoyillari bilan tanishtiradigan muhim tarmog‘i formal mantiq bo‘lib, u tarixiy kelib chiqishini e’tiborga olgan holda an’anaviy mantiq, ommaviyligi nuqtai nazaridan esa, umumiy mantiq deb ham yuritiladi.

Mantiq fani inson tafakkurining eng umumiy shakllari, qonunlari va fikrlash usullarini o‘rganadi. Mantiq fani tafakkurni rivojlantiradi, insonda umumiy tushunchalar, kategoriylar bilan ish ko‘rish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Bu esa, bugungi fan texnika rivoji jadallahsgan sharoitda ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy – nazariy ma’lumotlarni samarali tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. «Apodeytika» ishonch ma’nosini anglatuvchi tushuncha bo‘lib, uni falsafa va mantiqqa Aristotel qat’iy (sahih) ilmiy bilimni aniqlash maqsadida qo‘llagan. Aristotelning fikricha, mulohazali bilim qanchalik haqiqatga yaqinlashmasin, bari bir, haqiqiy bilimga tenglasha olmaydi. Aristotel haqiqiy bilim deganda, tajribani nazarda tutgan. Uning fikricha, tajriba fanning haqiqiy asosini aniqlovchi mezondir<sup>1</sup>

Tafakkurning mantiqiylar shakllari tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarishdir.

## ***1.2. Tushunchaning ta’rifī, tuzilishi va turlari.***

Ob’yektiv borliq, undagi buyum va hodisalar inson ongida tushunchalar yordamida, ular orqali aks etadi, bilib olinadi. Tushuncha tafakkurning eng dastlabki, sodda shakli, real borliqning inson ongidagi g‘oyaviy timsolidir.

**Tushuncha deb buyum va hodisalarining eng umumiy, muhim, zaruriy belgilarini inson ongida aks ettiruvchi tafakkur shakliga aytildi.**

Buyumning asl, tub xususiyatlarini ifoda etuvchi belgi buyumning muhim belgisi hisoblanadi. Ongimizda aks etgan narsa va hodisalar belgisi tushuncha belgisi deyiladi.

---

<sup>1</sup>Аристотель. Метафизика. Переводы, комментарии, толкования. – СПб.: Эльга, Киев: Алетейя, 2002. – С. 40–41.

Masalan, «odam» tushunchasining muhim belgisi aqli, ongli, fikrlash, so‘zlash va mehnat qilish faoliyatiga ega bo‘lgan mavjudot ekanligidir.

Inson tafakkurida tushuncha shakllanishining asosiy mantiqiy usullari quyidagilardir:

**Taqqoslash** – buyum va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutni aniqlash usuli.

Taqqoslash natijasi chin bo‘lishi uchun quyidagi talablarga amal qilish lozim:

1. Hamma vaqt bir-biri bilan haqiqatda bir tarzda o‘zaro real bog‘lanishda bo‘lgan buyumlarni taqqoslab ko‘rish lozim. Masalan: «olim» va «san’atkor» tushunchalari o‘rtasida umumiy belgi ularning ikkalasi ham aqliy mehnat vakillari ekanligidir.

2. Qanday belgiga ko‘ra taqqoslash oldindan ma’lum bo‘lmog‘i lozim.

3. Hamma vaqt ikki yoki bir necha buyumni bir belgi asosida aynan bir nisbatda taqqoslash kerak.

4. Har qanday taqqoslashda tasodifiy, duch kelgan belgilarga qarab emas, balki taqqoslanayotgan buyumlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan barqaror, zaruriy belgilarga qarab ish ko‘rish lozim.

Analiz tadqiq etilayotgan buyumni fikran tarkibiy qismlarga, bo‘laklarga bo‘lishdir.

Sintez butunning bo‘laklari, qismlarini fikran to‘plab, yaxlit holda o‘rganishdir.

**Abstraksiyalashtirish** deb buyum va hodisalarning ikkinchi darajali, muhim bo‘lмаган belgilarini tashlab, ulardan uzoqlashib, eng muhim, asosiy, umumiy belgilarini aniqlashga aytildi.

**Umumlashtirish** buyum va hodisaning o‘xshash, muhim belgilarini fikran muayyan tushunchada birlashtirib aks ettirishdir. Masalan: sabzi, piyoz, karam, kartoshka – sabzavot; olma nok, o‘rik – mevalar. Umumlashtirishda ayrimlikdan umumiyligka o‘tish sodir bo‘ladi.

Til tafakkur bilan uzviy bog‘langan, fikrimizning bevosita mavjud bo‘lishini ta’minlaydigan va kishilar o‘rtasida aloqa o‘rnatishga xizmat qiladigan axborot belgilari tizimidan iborat. Tilni o‘rganish mantiq fanining muhim vazifalaridan birini tashkil etadi. Ma’lumki, tafakkur olamni mavhumlashtirib va umumlashtirib aks

ettiradigan ideal hodisadir. Mavhum narsalarni, umumiylikni faqat til yordamidagina qayd qilish mumkin.

Til va tafakkurning birligi nutqda o‘z ifodasini topadi. Nutq og‘zaki va yozma holda mavjud bo‘lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya’ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo‘lib qoladi.

Til kishilarning ijtimoiy mehnat faoliyati negizida vujudga kelgan va rivojlanan borgan. Ana shuning uchun ham u chuqur ijtimoiy mazmunga ega hamda madaniyatimiz va tariximizning muhim bir qismini tashkil etadi.

Til yordamida bilimlar hosil qilinadi, to‘planadi va bir avloddan boshqa avlodga etkazib beriladi. Shu tariqa u ta’lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishga, madaniyatimizni taraqqiy ettirishga yordam beradi.

Belgi bilish jarayonida boshqa bir predmetning vakili vazifasini bajaruvchi hamda u haqida ma’lum bir xabarlar berish, uni saqlash, qayta ishlash va uzatishga imkoniyat yaratuvchi moddiy predmetdir. Har qanday belgi ham til belgisi bo‘la olmaydi. Tilga aloqasi bo‘lmagan belgilar qatoriga nusxa-belgilar (masalan, fotografiya kartochkasi, barmoq izi va shu kabilar), indeks-belgilar yoki ko‘rsatuvchi belgilar (masalan, badan haroratining ko‘tarilishi – kasallik belgisi, tutun – olovning belgisi va shu kabilar) kiradi.

Til belgisi simvol – ramzlar shaklida mavjud bo‘lib, o‘zi ifoda qiladigan predmetlar bilan tuzilishiga ko‘ra hech qanday o‘xshashlikka ega emas. Mantiq o‘z e’tiborini ana shunday til belgilarini o‘rganishga qaratadi.

Tafakkurning mantiqiy shaklini o‘rganishdagi semantik kategoriylar muhim ahamiyatga ega. Semantik kategoriylar til ifodalarining sinflaridan iborat bo‘lib, ular bir-birlaridan qanday ob’yektlarni aks ettirishi bilan farq qiladilar. Asosiy semantik kategoriylar qatoriga gap va uning tarkibida nisbatan mustaqil holda mavjud bo‘lgan qismlari – deskriptiv va mantiqiy atamalar kiradi.

Gap hukmni, savolni va normani ifoda qilishi mumkin. Hukmni ifoda qiluvchi gap predmetga birorta belgining (xossa yoki munosabatning) xosligini tasdiqlaydi va inkor qiladi. U darak gapdan iborat.

Gapda predmetlarni, ularning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar deskriptiv atamalar deyiladi. Deskriptiv atamalar predmetlar nomlari yoki termalar (predmetlarni, predmetlar to‘plamini aks ettiruvchi ifodalar) va predikatorlar (predmetlarning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar)ga bo‘linadi.

Predmetlarning nomlari ayrim so‘zlar va so‘z birikmalari bo‘lib, ular moddiy (planeta, elektr toki) va ideal (sezgi, tafakkur) predmetlarni ifodalaydi. Predmet nomi belgidan iborat bo‘lganligi uchun o‘z mazmuni va ma’nosiga ega. Nomning mazmuni predmetni ifoda qiladi va mantiqda denotat deb ataladi. Nomning ma’nosi esa predmetning muhim, umumiyligi belgilarini ifoda qiladi va konsept deb ataladi. Masalan, «Arastu», «Mantiq fanining asoschisi», «Topika asarining muallifi» kabi ifodalarning mazmuni bir xil, ya’ni bitta predmetni ifodalaydi, ma’nosi esa turli xil, ya’ni fikr qilayotgan ob’yektning har xil belgilarini qayd qiladi.

Shuningdek, nomlar yakka («Toshkent shahri») yoki umumiyligi («shahar») bo‘lishi mumkin. Bunda yakka nom bitta predmetni, umumiyligi nom esa, predmetlar sinfini aks ettiradi.

Demak, tushuncha til yoki nutqda so‘zlar yordamida ifodalanadi. Til va tafakkur kabi tushuncha va so‘z ham uzviy birlikni tashkil etadi. Shu bilan birqalikda, tushuncha va so‘z o‘rtasida farqlar ham mavjuddir:

1. So‘z tushunchaning tashqi shakli, moddiy asosi, tushuncha esa so‘zning ichki mazmuni, ma’naviy tomoni hisoblanadi.
2. So‘z moddiy xarakterga ega, ya’ni uni aytganda eshitamiz, yozganda ko‘ramiz. Tushuncha esa ma’naviy xarakterga ega, uni na eshitamiz va na ko‘ramiz.
3. So‘zni grammatika, tushunchani esa mantiq o‘rganadi.

Tushunchaning mantiqiy tarkibini uning mazmuni va hajmi tashkil etadi.

Tushunchaning mazmuni deb unda aks etgan buyum va hodisalar muhim belgilarining majmuidan iborat bo‘lgan bilimlarga aytildi.

Tushunchaning hajmi deb unda aks etgan buyum va hodisalar doirasi va ko‘lami to‘g‘risidagi bilimga aytildi. Masalan, «odam» tushunchasining hajmini o‘tmishda yashagan, hozir yashayotgan va kelajakda ham yashashi mumkin bo‘lgan barcha kishilar tashkil etadi.

Mantiqda tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari nisbat qonuni mavjuddir. Bu qonunga binoan, tushunchaning mazmuni qancha keng bo'lsa, uning hajmi shuncha tor bo'ladi va aksincha, tushunchaning mazmuni qancha tor bo'lsa, ya'ni belgilari kam, umumiy bo'lsa, uning hajmi shuncha keng bo'ladi. Bu qonun tushunchada o'zaro jins-tur munosabatida ko'rinadi. Masalan, «adabiyot» va «XX asr o'zbek adabiyoti» tushunchalarining hajmlari turlichadir. Chunonchi, «adabiyot» tushunchasining hajmi keng, mazmuni esa tordir. «XX asr o'zbek adabiyoti» tushunchasining hajmi tor bo'lsa ham, mazmuni kengdir.

Tushunchalar bir qancha belgilariga binoan har xil turlarga bo'linadi:

Birinchidan, mazmuniga binoan tushunchalar quyidagi turlarga bo'linadi: konkret va abstrakt, nisbatdosh va nisbatsiz, ijobiy va salbiy tushunchalar, kategoriyalar.

Konkret tushunchalar buyum va hodisalardagi asl, tub belgilarni yaxlit holda aks ettiradi. Masalan: to'lqin, adabiyotshunos, ob-havo, O'zbekiston.

Abstrakt (mavhum) tushunchalar buyum va hodisalardagi ayrim belgilarni aks ettiradi. Masalan: qizillik, shirinlik, a'lochi, go'zal.

Nisbatdosh tushunchalar juft tushunchalar o'rtasidagi muayyan aloqadorlikni ifodalaydi. Masalan: o'qituvchi va o'quvchi, oshpaz va xo'randa, sotuvchi va xaridor. Ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi.

Nisbatsiz tushunchalar o'zaro aloqadorlik, o'xshashlik va umumiy belgilarga ega bo'limgan tushunchalarni ifodalaydi. Masalan: sevgi, mashina, o'g'it, haqiqat, tuproq. Ular bir-birisiz ham mavjud bo'ladi.

Ijobiy (musbat) tushunchalar buyum va hodisada ma'lum bir belgi mavjudligini aks ettiradi. Masalan: mazmunli, serhosil, shoxdor, gapdon, chaqqon, go'zal, tez harakat.

Salbiy (manfiy) tushunchalar buyum va hodisada biror belgi mavjud emasligini ifodalaydi. Masalan: beg'am, noaniq, ta'msiz.

**Kategoriya** deb ilmiy mazmunga, qimmatga ega bo'lgan fan tushunchalariga aytildi. Har bir fanning o'z kategoriyalari mavjuddir.

Ikkinchidan, hajmiga ko'ra tushunchalar jins va tur tushunchalarga bo'linadi.

Hajm jihatidan keng bo'lgan tushunchalar jins tushunchalar deyiladi.

**Hajm jihatidan tor bo‘lgan tushunchalar tur tushunchalar deyiladi.** Masalan: «shahar» tushunchasi «Termiz» tushunchasidan keng bo‘lganligi uchun jins tushunchadir, «Termiz» esa tur tushunchadir.

Uchinchidan, hajm tafovutiga ko‘ra tushunchalar yakka, umumiylar va to‘planma tushunchalarga bo‘linadi.

Yakka tushunchalar bir buyum yoki hodisaga xos belgilarni ifodalaydi. Masalan: Toshkent, Gulnora, birinchi astronavt Neil Armstrong.

Umumiylar tushunchalar bir jinsdan bo‘lgan ko‘p buyum va hodisalarini ifodalaydi. Masalan: yulduz, kitob, maktab, hosil.

To‘planma tushunchalar bir jinsdan bo‘lgan buyum va hodisalar to‘plamini yaxlit holda ifodalaydi. Masalan: o‘rmon (daraxtlar o‘sadigan yer), kutubxona (kitoblar to‘plangan joy), don (bug‘doy, arpa, sholi).

Tushunchalar ustida turli mantiqiy amallar mavjuddir: tushunchani ta’riflash, bo‘lish, umumlashtirish, chegaralash, sinflar ustida mantiqiy amallar.

**Tushunchani ta’riflash** (definitsiya) – tushunchaning mazmunini ochib berish yoki uning eng muhim belgilarini ko‘rsatib berish demakdir. Masalan: fe’l deb predmetning ish-harakatini anglatadigan so‘z turkumiga aytildi.

Ta’rifning asosananiq va noaniq turlari mavjud.

Aniq ta’rif deb buyum va hodisaga xos eng muhim belgilarni bevosita ko‘rsatadigan ta’rifga aytildi. U ta’riflanish va ta’riflovchi kabi ikki tushunchadan iborat bo‘ladi. Aniq ta’rif ham o‘z navbatida bir nechta qismlarga bo‘linadi.

*Birinchidan*, eng yaqin tur belgisini ko‘rsatish va jins orqali ta’riflash; unda bir vaqtning o‘zida ham jins, ham tur belgilari ko‘rsatiladi. Masalan: «uchburchak» tushunchasini uch tekis chiqiq bilan chegaralangan (tur) geometrik tekis shakl (jins) deb ta’riflaymiz.

*Ikkinchidan*, genetik ta’rif (lot. genesis – kelib chiqish, paydo bo‘lish) – buyum va hodisalarning kelib chiqishi, paydo bo‘lishini ko‘rsatish orqali ta’riflash. Masalan: odam hayvonot olamidan ajralib chiqqan mavjudotdir. San’at mehnat jaryonida vujudga kelgan inson faoliyatidir.

*Uchinchidan*, real ta’rif buyum va hodisaning haqiqiy, asl ma’nosini ochib berish orqali ta’riflashdir. Masalan: Ot deb buyum va hodisaning nomini anglatuvchi so‘z turkumiga aytildi.

*To ‘rtinchidan*, nominal ta’rif (lot. nominalius – nom, ism, ot) ma’lum bir tushunchani ifodalagan so‘z ma’nosini ochib berish orqali ta’riflash. Masalan: Filologiya qadimgi grekcha phileo – sevaman, logos – so‘z, ya’ni so‘zni sevaman deganidir.

Noaniq ta’rifda tushunchaning mazmuni yordamchi vositalar orqali muayyan kontekstda ochib beriladi. Noaniq ta’riflarning ham quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

Birinchidan, kontekstual ta’rif deb tushuncha ishtirok etayotgan kontekst (matn) orqali uning ma’nosini ochib berishga aytildi. Har bir so‘zning konkret ma’no funkciyalari muayyan kontekstda ma’lum bo‘ladi. Masalan: «ot» so‘zi turli vaziyatlarda turlicha ma’no ifodalariga ega: ot – nom, ot – hayvon, ot – uloqtir, ot – o‘t och.

*Ikkinchidan*, induktiv ta’rifda muayyan ko‘plik (sinf, oila)ni uni tashkil etuvchi qismlar, bo‘laklar orqali aniqlash sodir bo‘ladi.

*Uchinchidan*, aksiomani ta’riflash muayyan boshlang‘ich qoidalarga asoslanadiki, ular bevosita ta’riflashni talab etmaydi. Masalan: nuqta, to‘g‘ri chiziq, ma’lum... tekislikda yotadigan va h.k.

*To ‘rtinchidan*, semantik ta’rif – bunda buyum yoki hodisani tavsiflovchi belgi, xususiyat va aloqalar ma’nosini orqali ta’riflanadi. Masalan: besh burchak besh tomonga ega bo‘lgan ko‘p burchakdir, x belgisi harakat kvantini anglatadi.

*Beshinchidan*, sintaktik ta’rif – bunda buyum yoki hodisa unga taalluqli qoidalari orqali aniqlanadi. Masalan: qavs, vergul va h.k. lar kabi grammatik belgilar ularni kontekstda ishlatish qoidalari orqali aniqlanadi.

*Oltinchidan*, ostensiv ta’rif (grekcha – ko‘rsataman) – so‘zlarni ular ifodalagan buyumlarni bevosita ko‘rsatish orqali ta’riflash. Masalan, bolaga so‘zlarni aytish bilan birga ular ifodalaydigan buyumlarni ko‘rsatish.

*Yettinchidan*, operatsional ta’rif – buyum va hodisalarning muayyan xossalari, belgilari, sifatlari, funktsiyalarini o‘lchash orqali ta’riflash. Masalan, uzunlikni turli ob’yektlarni o‘lchash orqali aniqlash, kislotaga lakkus qog‘ozni tushirib ko‘rib, uning qizil rangga kirishi orqali unda kislota mavjudligini aniqlash.

Buyumning o‘ziga qarama-qarshi buyumga bo‘lgan munosabatini ko‘rstish orqali ta’riflash. Masalan, Materiya inson ongidan tashqarida mavjud bo‘lgan ob’yektiv borliqidir. Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Shakl mazmunning tashqi ifodalanishi va yashash usulidir. Ma’naviyat moddiyatning inson ongidagi aksidir. Tasodif zaruriyatning namoyon bo‘lish va unga qo‘srimcha shaklidir. Urush siyosatni notinch yo‘llar bilan olib borishdir.

Shuningdek, tushunchalarni ta’riflashning quyidagi qoidalari mavjud:

- ta’rif mutanosib bo‘lmog‘i lozim, ya’ni ta’riflovchi tushuncha va ta’riflanuvchi tushuncha hajm jihatidan bir-biriga teng bo‘lmog‘i lozim. Masalan: Mantiq inson tafakkuri qonunlari, shakllari, usullari va vositalari to‘g‘risidagi fandir. Inson tafakkuri qonunlari, shakllari, usullari va vositalarini o‘rganuvchi fan mantiqdir. Ushbu qoidani buzish yo juda ham keng va yoki juda ham tor ta’riflashga olib keladi.

- ta’rifda aylanma bo‘lmasligi lozim, ya’ni ma’lum tushunchani aynan takrorlab qo‘ymaslik kerak. Agar aylanma yoki takror bo‘lsa, u tavtologiyaga olib keladi. Masalan: suv suvdir, yaxshilik yaxshilikdir, degan gaplar ta’rif emas, chunki ularda aylanma yoki takror mavjud.

- ta’rif inkor etish orqali bo‘lishi mumkin emas. Masalan: o‘simlik hayvon emas, erkak xotin emas, degan fikrlar ta’rif bo‘lolmaydi. Chunki ularda inkor bor.

- ta’rif aniq, ravshan, to‘g‘ri va metafora (o‘xshatish)siz bo‘lishi lozim. Masalan: artilleriya – urush xudosi, matematika – aql gimnastikasi, falsafa – fanlarning otasi, degan gaplar ta’rif emas, chunki ularda o‘xshatish mavjuddir.

- ta’rifda mantiqiy ziddiyat bo‘lmasligi lozim. Masalan, yaxshilik va yomonlik, issiqlik va sovuqlik tushunchalarini bir-biri bilan aralashtirib ta’riflash mumkin emas. Chunki ular bir-biriga ziddir. Bu qoidani buzish sofizm xatosiga olib keladi.

Ta’rifga olmosh bo‘ladigan, uni vaqtincha almashtiradigan mantiqiy usullar ham mavjuddir. Ular quyidagilardir: ko‘rsatish, tasvirlash, tavsiflash, o‘xshatish, tafovutlash, xarakteristika.

Ko‘rsatishda buyum va hodisaning ayrim belgilariga (masalan, hajm, rang, shakl, hatti-harakat, tovush va h. k.) taqlid qilib ta’kidlash sodir bo‘ladi.

Tasvirlash buyum va hodisaning bir qancha belgilarini birma-bir sanab chiqishdir. Masalan, oqqushni shunday tasvirlash mumkin: «Oqqush o‘zi qorday oppoq, kichkinagina ko‘zлari yaltirab turadi, tumshug‘i va tirnoqlari qop-qora, bo‘yni uzunchoq, viqorli va ko‘rkamdir. Ko‘k qamishlar orasida yashaydi, qoramtil suv ustida vazmin suzib yuradi».

Tavsiflash buyumning ba’zi alohida belgilarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Masalan: odamning to‘siqlarni yengishi uning irodasi zo‘rligini ko‘rsatuvchi alomatdir. Go‘zal va xunukni, yaxshi va yomonni ajrata olmaydigan odam didsiz yoki farosatsizdir.

O‘xshatish fikr qilinadigan ikki buyumdan biri ikkinchisining yordami bilan izohlanishini ko‘rsatuvchi usuldir. Masalan: bolalar hayot gullaridir, yoshlik hayot bahoridir, bilim hayot nuridir.

Tafovutlash ikki buyumni fikran chog‘ishtirib ko‘rish orqali ularning bir-biriga o‘xshamasligini, ya’ni bir-biridan farqini ko‘rsatishdir. Masalan: vodorodning kislорoddan farqi shundaki, uning o‘zi yonadi, ammo yonishga quvvat bermaydi.


Xarakteristika buyum va hodisaning tipik, xarakterli, eng muhim, umumiyl belgilarini qayd qilish usulidir.

Tushunchani bo‘lish deb uning hajmini aniqlashga aytildi. Masalan: «guruhimizdagи talabalar» tushunchasini bir qancha belgilari (millati, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, qayerdanligi, o‘qishi, partiyaviyligi va h.k.) bo‘yicha bo‘lish mumkin.

Bo‘lishning quyidagi turlari mavjuddir: belgilarni o‘zgartirish orqali bo‘lish va dixotamik bo‘lish.

Belgilarni o‘zgartirish orqali bo‘lishda jins tushunchalardan tur tushunchalar hosil qilinadi. Masalan: davlatlar hukmronlik qilish shakllari jihatidan monarkik va

demokratik davlatlarga, urushlar ijtimoiy xarakteri jihatidan adolatli vaadolatsiz urushlarga bo'linadi



Dixotamik (grekcha dixo – ikki) bo'lish ma'lum bir yagona tushunchani bir-biriga zid bo'lgan ikki tushunchaga bo'lishdir. Masalan: barcha elementlar metallar va metall bo'lmaganlarga, ijtimoiy hodisalar bazis va ustqurma hodisalariga bo'linadi

Tushunchani bo'lishning quyidagi qoidalari mavjud:

1. Bo'lish mutanosib bo'lmog'i, ya'ni bo'linmalar yig'indisi bo'linuvchi tushuncha hajmiga teng bo'lmog'i lozim. Aks holda noto'g'ri bo'lish sodir bo'ladi.
2. Bo'lish doim faqat bir asos bilan olib borilmog'i lozim. Shu asos (belgi) tugagandan so'ng boshqa asos (belgi) orqali bo'lishga o'tish kerak. Aks holda noizchillik, sakrab o'tish, adashib ketish xatolari sodir bo'ladi.
3. Bo'lish a'zolari yoki qismlari bir-birini inkor etmog'i lozim. Agar bo'lish uchun olingan asos to'g'ri bo'lsa, bo'linmalar ham bir-birini mustasno qiladi. Agar asos noto'g'ri bo'lsa, u vaqtida bo'linmalar ham noto'g'ri bo'lib chiqadi. Masalan: tishlarni kurak tish, qoziq tish, oziq tish deb bo'lish noto'g'ridir. Chunki bunda turli belgilar asos qilib olinganligi sababli bo'linmalar bir-birini istisno qilmaydi. Natijada bo'lish noto'g'ri bo'ladi.
4. Bo'lish izchil, uzluksiz bo'lishi lozim. Ya'ni tushunchani bo'lganda uning eng yaqin turidan boshlash kerak va barcha turlar sanab o'tilmaguncha bo'lishni davom ettirish lozim. Masalan: «tabiat» tushunchasini eng avvalo noorganik va organik tabiat tushunchalariga bo'lib, so'ngra bo'lishni davom ettirish lozim. Aks holda bo'lishda sakrab o'tish, noizchillik sodir bo'ladi.

Tushunchani bo'lishning maxsus tipi klassifikatsiyadir. *Tasniflash (turkumlash, klassifikasiya)* tushunchalarni bo'lishning alohida turidir. Tasniflash predmetlarni ma'lum bir turlarga (kichik sinflarga yoki ayrim predmetlarga) ajratishdan iborat

bo‘lib, bunda har bir tur boshqalariga nisbatan o‘zining aniq va qat’iy o‘rniga ega. Tasniflash natijalari har xil jadvallar, tuzilmalar, grafiklar, kodekslar va shu kabilarda o‘z aksini topadi.

Mantiqda sun’iy va tabiiy tasniflar farq qilinadi. Sun’iy tasnif predmetlarning birorta umumiy belgisiga ko‘ra amalga oshiriladi. Unga misol qilib kutubxonadagi kitoblar katalogini ko‘rsatish mumkin. Tabiiy tasnifni amalga oshirish uchun bo‘lish asosi qilib predmetlarning birorta muhim belgisini olish kerak. Ana shuning uchun ham u predmetlarning ayrim muhim xossalari haqida fikr yuritish, qonuniy bog‘lanishlarini aniqlash imkonini beradi. Bunga Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy jadvali tasnifi misol bo‘la oladi. Tasniflashda tushunchani bo‘lish qoidalariga amal qilish zarur.

Demak, klassifikatsiya buyum va hodisalarni muhim belgilariga ko‘ra guruhlarga, sinflarga, turlarga bo‘lishdir.

Klassifikatsiyalar tabiiy va sun’iy (yordamchi) kabi turlarga bo‘linadi.

Tabiiy klassifikatsiyalar buyum va hodisalarning tabiiy xossa – xususiyatlariiga asoslanadi. Masalan: kimyoviy elementlarning davriy sistemasi, o‘simplik va hayvonlarning turlari klassifikatsiyalari.

Sun’iy klassifikatsiyalar buyum va hodisalarni ixtiyoriy ravishda olingan belgilar orqali tasniflashtirishdir. Masalan: kutubxonalardagi bibliografik klassifikatsiya.

Tushunchani umumlashtirish uning hajmini kengaytirish deganidir. Masalan: «maktab» tushunchasini umumlashtirganda, u quyidagicha bo‘ladi: boshlang‘ich mакtab, to‘liqsiz o‘rta maktab, o‘rta maktab, professional maktab, o‘rta-maxsus maktab, oliy maktab.

Tushunchani chegaralash deb uning hajmini toraytirishga aytildi. Masalan: «maktab» tushunchasini chegaralaganda quyidagicha bo‘ladi: oliy maktab, o‘rta-maxsus maktab, professional maktab, o‘rta maktab, to‘liqsiz o‘rta maktab, boshlang‘ich maktab.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asosan **I-BOB** yuzasidan xulosa qiladigan bo‘lsak, mantiq fanini o‘qitishdan maqsad ularni to‘g‘ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonun-qoidalari bilan tanishtirish asosida mantiqan izchil, asosli

muhokama yuritishga o‘rgatish, aniq fikrlay oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ularda yangi turmush va tafakkur tarzini qaror toptirish va shu tariqa etuk mutaxassis bo‘lishlari, yangi demokratik jamiyat qurishning faol ishtirokchilariga aylanishi uchun zarur nazariy tayyorgarlikka va amaliy ko‘nikmalarga ega qilishdan iborat.

Mantiq fani to‘g‘ri tafakkur qilish, fikr yuritish qonunlari, qoidalari, shakllari va usullarini o‘rganadigan fandir. Bunda u tafakkurning mohiyati va mazmuni bilan birgalikda uning mantiqiy tarkibini ham ochib beradi. Shu bilan birga tushunchalarning o‘ziga hos xususiyatlarini bayon qiladi.

Ikkinchidan, tushuncha, mulohaza va xulosa chiqarish tafakkurning asosiy mantiqiy shakllari hisoblanadi. Barcha ilmiy bilish jarayoni tafakkurning mantiqiy shakllari asosida yaratiladi.

Uchinchidan, tafakkurning asosiy qonunlarini to‘g‘ri tahlil qilish orqali tushunchalarning mantiqiy tarkibini tushunish, ularning fikr jarayonidagi ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

To‘rtinchidan, tafakkur inson bilimining yuqori bosqichi bo‘lib, narsa va hodisalarining ichki mohiyati, barqaror aloqa bog‘lanishlarning inson ongida umumlashgan mavhum holda aks etishidir.

Beshinchidan, tushunchaning mantiqiy tarkibi uning mazmuni va hajmi hisoblanadi. Ular o‘rtasida dialektik aloqa tushunchaning mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari nisbat qonunida ifodalanadi.

Oltinchidan, mazmuniga ko‘ra tushunchalar konkret, absrakt (mavhum), nisbatdosh, nisbatsiz, ijobiy, salbiy; hajmiga ko‘ra tushunchalar, yakka, umumiyl, ayiruvchi va to‘plovchi tushunchalar va kategoriyalar kabi turlarga bo‘linadi.

Yettinchidan, tushunchala ustida bajariladigan mantiqiy amallar, taqqoslash, analiz, sintez, absraktlash va umumlashtirish orqali inson tafakkurida predmetlar haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga imkon yaratadi.

Demak, tushuncha va tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar tafakkurning birinchi eng quyi va sodda mantiqiy shakli sifatida nafaqat voqelik hodisalari, jarayonlari haqida ma’lumot olish imkonini yaratadi, balki ularning o‘ziga hosligini anglash imkonini ham beradi. Tushunchalar va ularning turlari, mantiqiy

tarkibi va tariflari o‘rtasidagi farqni bilish nafaqat mantiq ilmi uchun qolaversa barcha ijtimoiy gumanitar fanlar uchun ham muhim hisoblanadi.

## **II BOB. “TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRUVCHI MANTIQIY USULLAR” MAVZUSINI O‘QITISHNING USLUBIY JIHATLARI**

### ***2.1. “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari***

Mantiq fanining nazariy va amaliy ahamiyati avvalo, mantiq fanining ilmiy ishonch – e’tiqodni shakllanishida tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo‘lgan e’tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-e’tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasiga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmida ta’lim sohasida “innovatsion ta’lim” tushunchasi qo‘llanila boshlandi. Innovatsion ta’limning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarda kelajakkka mas’uliyat hissini va o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirishdir. “Texnologiya” tushunchasi keng ma’noda insonning barcha antropogen faoliyati natijasida mahsulot yaratilishi jarayonlarini qamrab oladi. Texnika va texnologiya, sanoat va transport, mashinasozlik va aviatsiya, kimyo va metallurgiya, tibbiyot va farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va chorvachilik, umuman, yaratuvchanlik va ijodkorlik mehnati va metod, usul, vosita hamda jarayonlar majmuasini ifodalash uchun shu kungacha cheklanmagan miqyosda foydalanib kelinayotgan ushbu atamaning mazmun va mohiyati keng ko‘lamga ega bo‘lib qoldi. Pedagogik jarayonlar uchun tatbiq qilinuvchi texnologiyaning an’anaviy va noan’anaviy, tarixiy, mumtoz, yangi va zamonaviy turlari farq qilinmoqda. Asosiy maqsad – shaxsning ta’lim va tarbiyasi hamda uning aqlan va jismonan rivojlanishi bilan bog‘liq

kasbiy faoliyat ekanligini nazarda tutsak, qanday nomlanishidan qat'iy nazar, pedagogik texnologiya komil inson tushunchasiga mazmunan singib ketishi lozim.

***“Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir”***

Ma’lumki mamlakatimiz oliv ta’lim muassasalarida “Falsafa” fanini o‘qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. Avvalo fandagi yangilik nima? Fandagi innovatsiya nima? degan savollarga javob berish lozim. Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so‘zları o‘rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so‘nggi yutuqlar, bilimlar, usullar xisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo‘llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi. “Falsafiy antropologiya (inson haqidagi ta’limot)” mavzusini o‘qitishda bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda quyidagi innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari qo‘llanilmoqda.

Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish qobiliyati, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy kabi uch guruhga bo‘linadigan metodlarning quyidagi variantlari qo‘llaniladi:

O‘qitishning ma’ruza (suhbat) metodi;

O‘qitishning amaliy ishlar metodi;

Laboratoriya ishlari metodi;

Mustaqil ishlar metodi;

Muammoli-evristik modellashtirish metodi;

Ilmiy-tadqiqot metodlari;

O‘qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;

O‘qitishning induktiv va deduktiv metodi;

O‘qitishning nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, ta’lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o‘qitish uslublaridan foydalanib, jahon talablari darajasida o‘quvchi va talabalarni o‘qitish mumkin.

Pedagogik muloqot deganda, odatda, o‘qituvchining o‘quvchi bilan dars mobaynida va darsdan tashqari bo‘ladigan aniq pedagogik funksiyalarga ega va qulay psixologik muhitni yaratish, shuning bilan birga, boshqa xildagi psixologik optimal ilmiy faoliyat va pedagog bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar uchun yo‘naltirilgan professional muloqot shakli tushuniladi (A.A. Leont’ev).

Boshqaruv uslublari bo‘yicha birinchi eksperimental psixologik izlanishlar 1938 yilda nemis psixologi Kurt Levin tomonidan AQSHda emigratsiyalangan natsistlarning Germaniya hududiga qaytishi davomida o‘tkazilgan. Bu izlanishda boshqaruv uslublarining kengaytirilgan klassifikatsiyasi sifatida avtoritar, demokratik va e’tiborsizlik yoki layoqatsizlik uslublari kiritilgan edi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, K. Levin keltirilayotgan boshqaruv uslublari bo‘yicha o‘zining buyuk tadqiqotini muallimlarning maktab o‘quvchilari ustidan olib boradigan boshchilagini o‘rgangan holda o‘tkazgan edi.

O‘zining eksperimentida K. Levin o‘n yoshga to‘lgan maktab o‘quvchilarini bir necha guruhlarga bo‘ldi. Bu guruhlardagi bolalar bir xil mashg‘ulot bilan, ya’ni qo‘ng‘iroq yasash bilan shug‘llandilar. Eksperimentning haqqoniy o‘tkazilishi maqsadida guruhlar umumiy va xususiy belgilari bo‘yicha, yoshi, jismoniy va intellektual ko‘rsatkichlari, o‘zaro shaxsiy munosabatlar tizimi va boshqalarning aynan mos kelishiga qarab tashkil etildi. Undan tashqari barcha guruhlar bir xil shartsharoitlarda umumiy dastur bo‘yicha ishladilar, bir xil vazifani bajardilar.

Faqatgina instruktorlar, yoki bizga yaqin termin bilan aytganda, muallimlar o‘zlarining boshqaruv uslublari bo‘lmish demokratik, avtoritar va e’tiborsizlik yoki layoqatsizlik kabi uslublarda guruhlar faoliyatini olib borishi bilan farqlanadilar. Har bir muallim o‘ziga biriktirilgan guruh bilan olti hafta ishladi. Undan so‘ng o‘zaro guruhlar almashinuvi amalga oshirildi. Bu guruhlar bilan yana olti haftalik ish kunlari yo‘lga qo‘yildi va yana yangi guruh bilan almashish amalga oshirildi. Bunday jarayon eksperimentni imkon qadar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga katta yordam berdi. Undan

tashqari, yuqorida keltirilib o‘tilganidek, guruhlar umumiy va xususiy belgilarga ko‘ra, aynan mos kelishiga qarab tashkil etilgan edi, shuning bilan birga, har bir muallim har qaysi guruh bilan yana qo‘sishma ravishda ish olib bordi.

Natijada guruh omilining ta’siri emas, balki aynan boshqaruv uslublarining guruhdagi o‘zaro munosabatlarga ta’siri, faoliyat motivatsiyasi, mehnat natijalari va boshqalarning ta’siri kuzatiladi.

K.Levin tomonidan o‘tkazilgan eksperimentda aniqlangan o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotning u yoki bu xususiyatlarini qisqacha keltirib o‘tamiz. Avtoritar uslubning xarakterli tomoni sifatida undagi qattiqqa‘l boshqaruv va umumiy nazorat ko‘proq muallimning boshqalarga nisbatan buyruq ovozida munosabatlarga kirishishiga va tez ogohlantirishlar berishiga olib kelishida ko‘rish mumkin. Shuning bilan ba’zi ishtirokchilarga nisbatan sababsiz ogohlantirishlar va boshqalariga esa asossiz maqtovlar yog‘dirilishi kuzatiladi. Avtoritar muallim faoliyat va vazifaning umumiy maqsadlarinigina emas, balki u kimning kim bilan ishlashini ko‘rsatib, uning yechilish yo‘llarini ham belgilab berdi. Vazifalar va ularning yechilish yo‘llari bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi. Bunday yondashuv inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil rolini pasaytiradi. Chunki inson bunda o‘zining faoliyatidan kutilayotgan maqsadni, ya’ni ushbu bosqichning nima uchun bajarilayotganligini va oldinda uni nima kutayotganligini aniq bilmaydi. Undan tashqari faoliyatni bosqichma-bosqich tartibga solish va nazorat qilish ishlari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchining ishtirokchilar bilan bo‘ladigan munosabatida uning mustaqilligi va javobgarligi sust yoki bu xususiyatlarning unda past darajada ekanligi kuzatildi. O‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan tashabbus yo‘qolib, u xuddi keraksiz xohish sifatida qaraladi. K. Levindan so‘ng amalga oshirilgan izlanishlarning ko‘rsatishicha, tashabbus go‘yoki avtoritar o‘qituvchining ishonch vakolatini qisqartirar ekan. Aytaylik, kimdir ishni boshqacharoq tashkil etishni taklif qilsa, demakki u bu narsani oldindan o‘rib chiqmaganligiga sha’mal qilayotgandek tuyular ekan. Shuning bilan birga, ma’lum bo‘lishicha, avtoritar lider ishtirokchilar muvaffaqiyatini sub’ektiv tarzda baholar ekan.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o‘z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: o‘quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og‘zaki metodlar: hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinci guruh metodlari: o‘quv axborotlarini ko‘rgazmali uzatish va ko‘rish orqali qabul qilish metodlari (ko‘rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o‘quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dasturlar tuzish, mashq va masalalar hamda test topshiriqlarini yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Mashhur ingliz adibi J.Bernard Shou topib aytganidek, “Bilimga eltuvchi yagona yo‘l, bu – faoliyatdir”. Ana shunday faoliyatning o‘quvchi va o‘qituvchi mehnati ko‘rinishidagi turlari omihtalashganida kutilganidan ziyodaroq natijaga erishish mumkin bo‘ladi. (kitob, konspektlar va h.k.) foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo‘llash rag‘batlantiriladi.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma’lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e’tiqodga va umuman, komil inson bo‘lishlariga bog‘liq. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday deb ta’kidlagan: «Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘la oladigan, bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo‘lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko‘radi. O‘z fikr-o‘yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo‘ladi».<sup>1</sup>

Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg‘itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to‘g‘ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo‘l ochadi.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o‘ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu

---

<sup>1</sup>. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelejak yo‘q. //Asarlar to‘plami. 7 jild. - T.: “O‘zbekiston”, 1999, B134.

jumladan, talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to‘g‘ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyoti uchun ahamiyati ham kattadir. Mantiqiy kategoriyalarning universal harakterga ega bo‘lishi ularni bilishda, ishlab chiqarish jarayonlarida, texnika tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan holda tadbiq etish imkoniyatini tug‘diradi. Bu esa, mantiqdan turli fanlarning konkret masalalarini hal qilishda foydalanishning keng imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Fanning tobora rivojlanib borishi, borliqning murakkab qonunlarining kashf etilishi ilmiy bilish metodi va mantiq apparatini unga moslashtirishni, tafakkurning har bir konkret masala haqida aniq, xatosiz, tez hulosalar bera olishini talab qiladi. Ilmiy va texnik jarayonning bunday talabi natijasida turli fanlarga ixtisoslashgan mantiq tarmoqlari vujudga keldi.

Fan qadriyatlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega. U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtiradi, millat dunyoqarashini shakllantiradi, ta’lim-tarbiya, axloq me’yorlarini vujudga keltiradi, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalaydi, mamlakatda qudratli ilmiy potensialni yaratishga xizmat qiladi.

Mantiqni bilish, ayniqsa, ilm fan bilan shug‘ullanish, ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borish, borgan sari ko‘payib borayotgan ilmiy axborotlarni tartibli ravishda o‘zlashtirish, ilmiy masalalarning tuzilishini tez bilib olish uchun ham muhim rol o‘ynaydi. Mantiqning ilmiy-nazariy ishlar hamda insonning amaliy faoliyati uchun bo‘lgan ahamiyatini alohida uqtirish bilan birga, chin hulosa chiqarishning hal qiluvchi sharti sifatida hayotni chuqur o‘rganish, voqelikdagi har bir holatlarni mantiq talablari asosida bilish zarur.

Mantiq fanini o‘rganishning fikr yuritish madaniyatini o‘sirishdagi ahamiyati dolzarbligicha qolmoqda. Mantiq inson tafakkuri madaniyatini ko‘tarish va insoniyatning uzoq tajribasi natijasida takomillashgan tafakkur shakllari, qonunlari va qoidalarini bilish uchun xizmat qiladi. U inson fikrining ketma-ket, ziddiyatsiz va asosli bo‘lishini ta‘minlaydi. Mantiq fani mazmunini chuqurroq o‘rganish kishilarning o‘z tafakkuri va o‘zgalar tafakkuri natijalariga tanqidiy qarash xislatlarini rivojlantiradi. Tafakkurning bu sifatlari esa insonning turli ilmiy va amaliy faoliyatlarini

sohasidagi ishi uchun katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to‘g‘ri foydalana olish, ta’lim tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish talabalarda o‘z nutqining asosli bo‘lishini ta’minlaydi, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi.

Mantiqni yaxshi bilish turli ilmiy uchrashuvlar, munozaralar, muhokamalarda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Xususan, bunday hollarda fikrlash sub’ekti haqiqatni aniqlash yoki uning sofligini saqlab qolish, asoslash uchun mantiqiy qonun – qoidalarni to‘g‘ri tadbiq eta bilishi, suxbatdoshining fikridagi xatolarni tez topa olishi, o‘z fikrini dalilli qilib bayon etishi zarur. Bu esa uning mantiq fanini yaxshi bilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Har bir xalqning kelajagi voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda o‘tgan davr mobaynida ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, yoshlarni jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 08.10.2019 yildagi 5847-sonli Farmoni, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 20.04.2017 yildagi 2909-sonli Qarori asosida har bir oliy ta’lim muassasasi turdosh horijiy yetakchi ixtisoslashgan ilmiy-ta’lim muassasalarri bilan hamkolik aloqalarini o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogic texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish, oliy ta’lim muassasalarini modernizatsiyalash, ularni zamonaviy o‘quv va ilmiy laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash, ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda o‘qitish shakllarini joriy etishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

O‘tgan davr mobaynida oliy ta’lim tizimida gumanitar fanlarning me’yoriy hujjatlari, o‘quv-uslubiy majmuasini takomillashtirish va ularni o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan ko‘plab ishlar amalga oshirildi.

Bu ishlar kelgusida yana izchil davom ettiriladi. Fanlarni o‘qitishda uzziylik va izchillikni ta’minlash, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish, ilm-fan sohasidagi yangiliklarni ularda aks ettirish, bugungi va istiqboldagi vazifalarni yoritish, mustaqil ta’lim, o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikaçiya texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatlari hisobga olinadi.

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitish borasida milliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, fanlarning namunaviy o‘quv dasturlarini takomillashtirish va ular asosida ma’ruza matnlari, yangi avlod o‘quv adabiyotlari, elektron adabiyotlarni yaratish va ta’lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

O‘quv fanlari bo‘yicha elektron o‘quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikaçiya texnologiyalaridan foydalanish 5imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o‘z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo‘yicha bilimlarni chuqur o‘zlashtirishlarining asosiy omili bo‘lib, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi.

Ayni shunday sa’y-harakatlar amalga oshirilishi ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tatbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o‘qituvchilarni ilg‘or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasini chuqur o‘rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta’lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish doirasidagi vazifalardan biri mantiqshunos olimlarimiz zimmasiga tegishli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, ta’lim jarayoniga innovatsiya va ta’lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida “Mantiq” fanini o‘qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash bugungi

kunning dolzarb masalaridan biri xisoblanadi. Yangilik bu fandagi eng so‘nggi yutuqlar, bilimlar, usullar xisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo‘llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi.

Mantiq fanini o‘qitishda bugungi kunda innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda.

Interaktiv o‘qitish texnologiyalari innovatsion texnologiyalarning yangi shakldagi usullari sifatida talabalarning faol hayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Hozirgi vaqtida ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko‘laming ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta’lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo ko‘plab pedagogik innovatsiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta’lim jarayonlariga o‘qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tatbiq etish bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo‘lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda har bir o‘qituvchining o‘z fanigava barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o‘rgana borib, ularni o‘z mehnat faoliyatida izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir. Biz falsafa fanlarini o‘qitishda, bu fanning o‘ziga hosligini talabalarga tushuntirishda albatta yuqorida ta’kidlab o‘tilgan jihatlarga e’tibor qaratsak, dars jarayonining samarali o‘tishini ta’minlagan hamda talabalarga yaxshi bilib olishlari uchun sharoit yaratgan bo‘lamiz

**“Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzuidan o‘quv mashg‘uloti  
ta’lim texnologiyasi**

<b>MAVZU</b>	<b>“Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘rganishning nazariy va uslubiy masalalari</b>
--------------	---

<b>Vaqti: 2 soat</b>	<b>Talabalar soni: 50-70</b>
<b>O‘quv mashg‘ulot shakli va turi</b>	Ko‘rgazmali – organayzerli -tematik ma’ruza, ijodiy fikrlovchilikka oid
<b>Mashg‘ulot rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tushuncha tafakkurning mantiqiy shakli sifatida.</li> <li>2. Tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallar.</li> <li>3. Tushunchaning tuzilishi va turlari.</li> <li>4. Tushunchalarni tariflashga oid yondashuvlar.</li> </ol>
<p><b>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</b> “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘rganishning nazariy va uslubiy jihatlarini talabalarga tushuntirish, tushuncha turlarini farqlash va mohiyatini tahlil qilish, ularni qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish.</p>	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O‘quv faoliyatini natijalari:</b>
Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullarning mazmun-mohiyatini ochib beradi.  Faollashtirish orqali oldingi bilimlarini yodga soladi;	<p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘rganishning nazariy va uslubiy jihatlarining o‘ziga xosligini anglaydi;</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallarni yoritib beriladi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallarni va uning turlarini farqlay oladi;</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- tushuncha turlariga tavsif beradi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tushuncha turlarini sanab, izoh beradi;</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- tushunchaning mantiqiy tarkibini tushuntirib beradi;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tushunchaning mantiqiy tarkibini va turlarini ajratib bera oladi;</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tushunchalarni tariflashga oid turli yondashuvlar haqidagi ma’lumotga ega bo‘ladi va ular o‘rtasidagi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tushunchalarni tariflashga oid turli yondashuvlar haqidagi ma’lumotga ega bo‘ladi va ular o‘rtasidagi</li> </ul>

yondashuvlar xarakteristika haqida ma'lumot beradi.	farqni ajratib bera oladi..
<b>Ta'lim usullari</b>	Ma'ruza, tushuntirish, aqliy hujum, diagramma "Venn"
<b>Ta'lim vositalari</b>	Ma'ruza matni, tarqatma material, slaydlar, marker, A3-qog'ozi, kompyuter texnologiyasi, grafik organayzerlar
<b>Ta'lim shakli</b>	Jamoaviy va yakka tartibda ishslash
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	Maxsus texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, balli tizimi asosida baholash.

### Ma'ruzaning texnologik xaritasi

<b>Ish bosqichi va vaqtি</b>	<b>Faoliyatning mazmuni</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchi</b>
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi  (10 minut)	<p>1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralarini va ma'ruza rejasiga izoh beradi;</p> <p>1.3. 1-mashg'ulotda o'tilgan mavzuni faollashtiruvchi savolar asosida yana bir bor esga olinadi va ularni qisqacha xulosada tinglovchilar bilan birga yakun kiladi. Tezkor-so'rov savollari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Bilish jarayoni qanday amalga oshadi?</li> <li>- Mantiq fanining tadqiqot ob'yektini aytинг?</li> <li>- Tafakkurning qanday qonunlari bor?</li> <li>- Fikrdagi izchillik deganda nimani tushunasiz?</li> <li>- Tafakkur qonunlarini bilmasdan turib ham to'g'ri fikrlash mumkinmi?</li> </ul>	Mavzu nomini yozib oladi  Tinglaydi, yozib oladilar  Tinglaydi, savollarga javob beradi.
	<p>2.1. Yangi mavzu bo'yicha oldindan tayyorlangan jonlantiruvchi savollar bo'yicha tinglovchilar bilimini sinab ko'radi. Quyidagi savollar beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Tushuncha nima?</li> <li>- Tushuncha va so'z o'rtasida farq bormi?</li> <li>- Tushuncha qanday usullar orqali hosil qilinadi?</li> </ul>	Yozib boradilar. Savollarga javob beradi.

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallarni ayting?</li> <li>- Tushunchaning turlarini sanab bering?</li> <li>- Tushunchalarni tariflashning qanday turlari bor? Ma'lumotlarni umumlashtirgan holda Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar mazmuni va mohiyati shakllantiriladi va tahlil qilinadi .</li> </ul>	
2. Asosiy bosqich (50 minut)	<p>2.2. Ma'ruza rejasining 1-2 savollariga kompyuter texnologiyasi yordamida slaydlar orqali mavzu yoritib beriladi. Tinglovchilar bilan birga ishlashga harakat qilinadi. Mavzuni yoritish davomida aniqlashtiruvchi savollar beriladi va har bir savol xulosalanadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1-savol bo'yicha. 1. Tushuncha tafakkurning mantiqiy shakli sifatida qanday ma'noga ega?</li> <li>2. Tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallar deganda nimani tushunasiz?</li> <li>3. Tushunchaning qanday tuzilishi va turlari bor?</li> <li>4. Tushunchalarni tariflashga oid qanday yondashuvlarni bilasiz?</li> </ol> <p>Mavzuning asosiy, muhim jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi va yozib olinishi kerak bo'lgan qismlar ko'rsatiladi.</p> <p>2.3. Dars davomida to'plangan bilimlar asosida grafikli organayzer tuzish uchun diagramma "Venn" haqida ko'rsatmalar beriladi.</p>	Tinglaydi, mavzu bo'yicha tabliqa va sxemalarni yozib oladi va misollar tuziladi. Tinglaydilar.
3. Yakuniy bosqich (20 minut)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosani berish uchun "Venn" diagrammasi tuziladi. Talabalar javoblari tinglanadi.</p> <p>Bunda quyidagilar bajariladi:</p> <p style="padding-left: 20px;">"Venn" diagrammasi va uning talablari tushuntiriladi, vazifalar beriladi; Individual holda diagramma tuziladi;</p> <p style="padding-left: 20px;">Tuzilgan diagrammalar asosida o'qituvchi umumiy "Venn" diagrammasini tuzadi va shu asosida darsga xulosa beriladi.</p> <p>3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar</p>	Yakka holda tuzilgan tuzilgan diagrammalar umumlashtiriladi.
		O'zini

	faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	qiziqtirgan savollarni beradi.
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi: "Tushuncha tafakkurning mantiqiy shakli sifatida" mavzusida esse yozib kelish.	Topshiriqlarni yozib oladi. O'UQga qarang.
	3.5. Amaliy mashg'ulotda o'tiladigan mavzuning rejasi bilan tanishtiradi. Tayyorlanib kelishini so'raydi.	Yozib oladilar.

## 2.2. “*Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar*” mavzusini o'qitishda uslubiy ko'rsatmalar.

Mamlakatimizda yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an'analarimizga, ilg'or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib, bor kuch va imkoniyatlar shu yo'lida safarbar etilib kelinmoqda.

Bugungi kunda ta'limning jamiyat rivojlanish sur'atlaridan ortda qolayotganligi, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to'liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e'tirof etilmoqda. Chunki ta'lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazishi kerak. Biroq jamiyat rivojlanishi va ta'lim tizimi o'rtasidagi munosabat murakkab ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajadagi jo'shqinlik bilan farqlanadi. Ta'lim barcha faol va sust o'zgarishlar ta'sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo'layotgan voqealarga esa o'z ta'sirini o'tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta'limdagи o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir.

Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko'laming ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo ko'plab pedagogik

innovatsiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta’lim jarayonlariga o‘qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tatbiq etish bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo‘lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda har bir o‘qituvchining o‘z fanigava barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o‘rgana borib, ularni o‘z mehnat faoliyatida izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Ma’lumki, bugun barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko‘p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg‘otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi – pedagogik innovatika jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Innovatsion ta’limning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarda kelajakkka mas’uliyat hissini va o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirishdir. J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi “Rim klubi” ma’ruzasida innovatsion ta’limni an’anaviy, ya’ni “normativ” ta’limga muqobil sifatida bilimlarni egallahni asosiy turi sifatida tavsifladi. Normativli ta’lim “takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan” bo‘lsa, innovatsion ta’lim yangi vaziyatlarda birgalikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Ilm-fan va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqtisodiy taraqqiy ettirish bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o‘zgarishlarning bo‘y berishiga zamin yaratmoqda. Suningdek, iqtisodiy sohada bo‘lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta’lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Real ta’lim amaliyoti ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishini to‘liq tasdiqlamoqda. Hozirda oliy ta’lim muasasalarida ta’lim jarayonlarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan

foydalinish orqali ta’lim jarayoning qiziqarli va samarali tashkil etishga zamin yaratmoqda. Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar mavzusini o‘qitishda quyidagi ta’lim texnologiyalar va interfaol metodlar orqali tushuntirishni tavsiya qilamiz. “BBB”, “O‘z-o‘zini nazorat”, “T-sxemasi” “Aqliy hujum” va boshqa ilg‘or texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda.

Biz “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘qitishda quyida ayrim texnologiyalarni ko‘rib chiqamiz.

#### **“Bilaman.Bilishni xohlayman. Bilib oldim” (BBB) GO**

Grafik organayzer talabalarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo‘llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg‘ulot yakunida guruhrar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi. O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

#### **“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim. (BBB) texnologiyasi.**

O‘quv faoliyati bevosita ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi.		
<b>BILAMAN</b>	<b>BILISHNI HOHLAYMAN</b>	<b>BILIB OLDIM</b>
«Mantiq» atamasi arabcha so‘zdan olinganligi haqida	«Mantiq» asosan nimalarni o‘rganishi haqida	Mantiq tafakkur qonunlari va shakllarini o‘rganuvchi fan ekanligi haqidagi fikrlarini
Tafakkurning to‘rtta asosiy qonuniborligi haqida	Bu qonunlarning mazmuni haqida	Inson bilish jarayonida buyum va hodisalar, ularning sifat xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilishi, fikr mulohaza yurish, ularni mantiqiy bog‘lab, xulosa hosil qilishi haqida
Yakka va umumiylar tushunchalarni	Hajmiga ko‘ra to‘plovchi tushunchalar haqida	To‘plovchi tushuncha ham sinf (umumiylar) tushucha bo‘lib, u aks ettirgan belgililar shu sinfni (umumiylarini) tashkil etuvchi

		har bir predmetga taalluqli bo‘lmasligi haqida
Misol keltirib tariflashni	Tavsiflash haqida	Predmetning ba’zi bir munosabatdagi muhim tur belgilarini ko‘rsatishi haqida

### O‘z-o‘zini nazorat savollari

Savollar	Javoblar
1. Mantiq fanining tadqiqot ob’yekti nima?	
2. Tafakkurning asosiy qonunlarini yozing?	
3. Bilish jarayoni qanday amalga oshadi?	
4. Fikrdagi izchilllik deganda nimani tushunasiz?	
5. Tafakkurning qonunlarini bilmasdan ham to‘g‘ri fikrlash mumkinmi?	
6. Tushuncha nima?	
7. Analiz nima?.	
8. Sintez nima?	
9. Absraktlashtirish nima?	
10. Umumlashtirish nima?	
11. Taqqoslash nima?	
12. Tushunchaning qanday turlarini bilasiz?	
13. Tushunchalar o‘rtasida qanday munosabatlar bor?	
14. Tushunchalarni bo‘lish deganda nimani tushunasiz?	
15. Tushunchaning qanday tariflari mavjud?	

### O‘yin mazmuni va maqsadi

- Ilmiy- tadqiqot jarayonining bosqichlarini aks ettirish va uni amalga oshirish ko‘nikmasini shakllantirish.
- Talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish uchun amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.
- Mustaqil holda tadqiqot jarayonini ketma-ketlik asosida ishlab chiqish.
- O‘z fikrini jamoa oldida izohlash va himoya qilishga erishish uchun bahs yuritish qoidalariga amal qilish.
- Ilmiy muammolarni to‘g‘ri tanlash, uni echimini topish, farazlar keltirish va umumiyl yakunlangan, asosli xulosalar asosida nazariyani yaratish.

## “T- sxema” texnikasi.

- bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rGANISHGA qaratilgan; bunda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan: ijobiy va salbiy tomonlari, afzallaiklari va kamchiliklari, bir g'oyaning ikki tomoni, foya va zararlari;
- tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlash muvaffaqiyati rivojlantirishga hamda o'z g'oylari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkon yaratadi;
- ma'ruza yakunida qo'llaniladi.

T-sxema qonun-qoidalari bilan tanishib chiqadi. Yakka tartibda yoki juft-juft bo'lib uni to'ldiradi.

O'z g'oyalarini yo'zma ravishda o'ng va chap taraflariga yozib chiqadilar. G'oyalar qarama-qarshi bo'lishi mumkin

Har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin

### Ekspert varag'i topshiriqlari.

**Vazifa: Quyidagi o'quv topshiriqlarini T-sxemadan foydalangan holda bajaring.**

Guruqlar	Guruhlarning vazifalari.
1-guruh	1. Tafakkurning asosiy mantiqiy shakllarini tariflang.
2-guruh	2. Tafakkurning asosiy qonunlari va larning ahamiyatini izohlang.
3-guruh	3. Tushunchaning muhim va nomuhim belgilari haqida ma'lumot bering.
4-guruh	4. Tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallarni tushintiring.
5-guruh	5. Tushunchalarning turlarini izohlang.

### “T- sxema” jadvali

Yutuqlari	Kamchiliklari

## **“Tushunchalar tahlili”metodi**

Metodning maqsadi: mazkur metodtalabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- Ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- Talabalarga mavzuga yoki bobga oid so‘zlar nomi beriladi;
- Talabalar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumotlar berishadi;
- Berilgan vaqt yakuniga etgach o‘quvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- Har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarni aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### **Tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallar tayanch tushunchalar tahlili**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi</b>	<b>Qo‘srimcha ma’lumot</b>
<b>Taqqoslash</b>		
<b>Analiz</b>		
<b>Sintez</b>		
<b>Abstraksiyalash</b>		
<b>Umumlashtirish</b>		

- *Izoh: ikkinchi ustinga va qo‘srimcha ma’lumotga ega bo‘lsa talaba tomonidan fikr bildiriladi*

### **Tafakkurning asosiy qonunlariga oid tushunchalar tahlili**

<b>Tushunchalar</b>	<b>Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi</b>	<b>Qo‘srimcha ma’lumot</b>
<b>Ayniyat</b>		
<b>Nozidlik</b>		

Istisno		
Yetarli asos		

- *Izoh: ikkinchi ustinga va qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lsa talaba tomonidan fikr bildiriladi*

### Krossvord

#### BILIMINGIZNI SINAB KO'RING

1						T					
						A					
	2										
						F					
3											
						A					
4											
						K					
5											
						K					
	6										
						U					
7											
						R					
8											

### Savollar

- Predmetlarning umumiyligi, muhim xususiyatlariga ko'ra birlashtirish...
- Fikrlarni alohida qismlarga ajratib o'rganish...
- Aqlsiz bola, odobsiz odam, kuchsiz jangchi, foydasiz ish kabi tushunchalar qanday tushunchalar hisoblanadi?
- Qahramon, go'zallik, hayol kabi tuqshunchalar qanday tushuncha turiga mansub?
- Uy, guldon, traktor qanday tushuncha?
- O'zbekiston Respublikasi, yer sayyorasi qanday tushuncha?
- Tafakkurning birinchi asosiy mantiqiy shakli...?
- Predmetning muhim ko'rinishi orqali tariflash...

#### BILIMINGIZNI SINAB KO'RING

1	U	M	U	M	L	A	SH	T	I	R	I	SH
								A	N	A	L	I
												Z
	2											
								F				
3	M	A	N						I	Y		
4	A	B	S	R	A			A	K	T		
5	K	O	N					K	R	E		T
	6	YA						K				
7	T	U	SH					U	N	CH		A
8								R	E	A		L

## Tarqatma materialning taxminiy nusxasi

FSMU jadvalini to'ldiring.

1. Tushunchaning mantiqiy tarkibini ifodalang?



Vazifa. Tushunchaning mantiqiy tarkibini ifodalang? Mavzusi bo'yicha fikrlaringizni bayon eting:

Fikr – tushuncha tafakkurning mantiqiy shakli.

Sabab – tushunchalarsiz buyum va hodisalar inson ongida aks etmaydi

Misol: inson ijtimoiy biologik mavjudoddir.

Umumlashtirish – tushuncha deb buyum va hodisalarning eng umumiyligi, muhim, zaruriy belgilarini inson ongida aks ettiruvchi tafakkur shakliga aytildi.

Demak, samarali innovatsion metodlardan yana biri kichik guruhlarda ishslash hisoblanadi. Kichik guruhlarda interfaol metodlarni qo'llash ko'proq samara beradi.

Bunda:

- alohida e'tibor seminar, amaliy mashg'ulotlarda ishslashga qiyin moslashadigan o'quvchilarga beriladi. Guruh soni besh kishidan oshmasligi lozim;
- guruh faoliyati o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi, ko'nikmalar aniqlanadi;
- barcha fikrlar e'tiborga olinadi;
- boshqalarning fikri hurmat qilinadi;

- hamkorlik ustuvorlik qilishi lozim.

Bu metod quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- talabalar qay darajada bilim va ko‘nikmalarga ega ekanliklari aniqlanadi;
- kichik guruhlarda ishlash talablariga qat’iy amal qilinadi;
- bir-birini hurmat qilish;
- ta’limning ijtimoiy jihatlari e’tiborda bo‘ladi va boshqalar.

Bunda pedagog:

- mashg‘ulot maqsadini aniq tushuntiradi;
- jamoaning psixologik xususiyatlarini hisobga oladi;
- qo‘llayotgan metodlarni o‘zi puxta bilishi shart;
- eng asosiysi, pedagog muomala madaniyatiga e’tiborini qaratishi lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonida psixologik-pedagogik aql-zakovat, kasb qobiliyati, pedagogik texnika uchligi pedagogning faoliyatida o‘ta muhim ahamiyatga ega.

**“Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini yoritishda quyidagi metodlarni tavsiya qilish mumkin.**

### **“QANDAY TEXNOLOGIYASI**




### **MUAMMONI QANDAY HAL ETISH MUMKIN EKANLIGI MUHOKAMA QILINADI**

**“Qanday?” sxemasini to’ldiring.**

Bilish jarayoni qanday amalga oshadi?

Tafakkurning qonunlari qanday?



Venn diagrammasini qo'llagan holda analiz va sintez tushunchalario'rta sidagi farqli jihatlarni tahlil qiling.




### “NIMA UCHUN?” TEXNOLOGIYASI



**Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida qo'llash mumkin**

“Nima uchun?” sxemasini chizib, javoblar iringizni yozing



**“BLITS SO’ROV”  
TEXNOLOGIYASI**



**KETMA-KETLIKNI VA IZCHILLIKNI O’RNATISHGA  
QARATILGAN TEXNOLOGIYADIR**

**Topshiriq (blits-so‘rov):**

- 1. Mantiq fanining tadqiqot ob'yekti nima?**
- 2. Tafakkurning asosiy qonunlari nechta?**
- 3. Fikrdagi izchillik deganda nima tushuniladi?**
- 4. Tushuncha nima?**
- 5. Analiz nima?**
- 6. Sintez nima?**
- 7. Umumlashtirish nima?**
- 8. Taqqoslash nima?**
- 9. Absraktlashtirish nima?**
- 10. Tushunchaning qanday turlari bor?**
- 11. Tushunchalarni bo‘lish deganda nimani tushunasiz?**
- 12. Tushunchaning qanday tariflari mavjud?**

**BLITS - SAVOL**

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Jarayon bosqichlari

**“Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini bo‘yicha testlar.**

**1. Falsafa nimani o‘rgatadi?**

- A) Kishilarda tafakkur qonunlari va talablari asosida dunyoning yaxlit idrok etilishini;
- B) Kishilarda tajribadan o‘tgan bilimlar asosida olam haqida izchil tasavvurlarni shakllantirishni;
- V) Jamiatning o‘tmishini umumlashtirish orqali kelajakni oldin tasavvur etishni;
- S) Insonning murakkab ijtimoiy hayotdagi o‘rnini belgilab berishga xizmat kiluvchi qapashlap, fikrlar ta’limotlarning yigindisini;

**2. Mantiq so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?**

- A. arabcha: so‘z, fikr, tushuncha
- B. forscha: so‘z, fikr, mulohaza
- V. turkiy: so‘z, fikr, tushuncha
- S. grekcha: so‘z, fikr, xulosa

**3. Tafakkurning nechta asosiy qonuni bor?**

- A. 4ta
- B. 5ta
- V. 6ta
- S. 7ta

**4. Tushunchani qanday fan o‘rganadi?**

- A. Mantiq
- B. Falsafa
- V. Gramatika
- S. Matematika

**5. Tushunchalar ustida bajariladigan mantiqiy amallar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.**

- A. Taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish.
- B. Gipoteza, nazariya, gnoseologiya
- V. Kuzatish, umumlashtirish, mavhumlashtirish
- S. Sezgi, idrok, xotira, tafakkur.

**6. Tafakkur shakli nima ?**

- A) fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog‘lanish usuli
- B) fikrning yaqqol ifodalanishi
- V) fikrning tilda gavdalanishi
- S) til va tafakkurning bir-biriga to‘la mos kelishi

**7. Fikr qachon to‘g‘ri qurilgan deb hisoblanadi?**

- A) aniq ma’nosiga ega bo‘lsa
- B) izchil bo‘lsa
- V) etarli asosga ega bo‘lsa

S) B,V,G hollari mavjud bo‘lsa

**8. Tafakkur qonuni nima?**

- A) fikr yuritish qoidalari yig‘indisi
- B) fikr yuritish usuli
- V) fikrlash elementlari o‘rtasidagi ichki zaruriy aloqadorlik
- S) fikrlash shakli

**9. Tushunchada nima aks etadi?**

- A) faqat predmetning umumiyligi belgilari
- B) faqat predmetning individual belgilari
- V) predmetning umumiyligi va muhim belgilari
- G) predmetning barcha belgilari

**10. Tushunchada predmet qanday xolda aks ettiriladi?**

- A) predmetning yaqqol obrazli shaklida
- B) abstraktlashgan holda
- V) tasavvur shaklida
- S) sezgi yoki idrok shaklida

**11. Tushuncha miyada bevosita xosil bo‘lishi mumkinmi?**

- A) mumkin
- B) ba’zida mumkin
- V) mumkin emas
- S) to‘g‘ri javob yo‘q

**12. Tushunchaning mazmunini nimalar tashkil etadi?**

- A) predmetning muxim va umumiyligi belgilari haqidagi axborotlar
- B) predmetning muxim va nomuxim belgilari haqidagi axborotlar
- V) predmetning mavjud belgilari haqidagi axborotlar
- S) faqat predmetning bevosita namoyon bo‘lgan belgilari haqidagi axborotlar

**13. Tushunchaning hajmida nima ifoda qilinadi?**

- A) predmetning egallab turgan joyi
- B) tushunchada aks etgan predmetlar yig‘indisi
- V) miqdor jihatdan aniq bo‘lgan predmetlar
- S) tushunchada aks etgan predmetlar mohiyati

**14. Quyidagilarning qaysi biri yakka tushuncha?**

- A) so‘z turkumi
- B) qit’a
- V) adabiy janr
- S) quyosh sistemasi

**15. Quyidagilardan qaysi biri bo‘sh hajmli tushuncha hisoblanadi?**

- A) nolъ soni
- B) ideal gaz

V) real mavjud bo‘lgan predmet

S) to‘g‘ri javob yo‘q

**16. “Laganbardor” tushunchasi qaysi turga mansub?**

A) yakka tushuncha

B) to‘plovchi

V) nisbatdosh

S) konkret

**17. Quyidagilardan qaysi biri birga bo‘ysinish munosabatidagi tushunchalar hisoblanadi?**

A) badiy asar – roman- sheriyl roman

B) asar personajlari- bosh qaxramon- salbiy qaxramon

V) o‘quv adabiyoti-darslik-o‘quv qo‘llanmasi

S) o‘zbekfilm- senariy- rejisser

**18. Quyidagilardan qaysi biri bo‘ysinish munosabatidagi tushunchalar?**

A) institut-fakulitet

B) respublika-viloyat

V) o‘qituvchi- o‘quvchi

S) universitet- O‘zMU

**19. Metodologiya nima?**

A) amaliy faoliyat prinsiplari;

B) gnoseologiyaning aynan o‘zi;

V) ilmiy tadqiqot mantig‘i;

S) bilish uslublari to‘g‘risida ta’limot

**20. Metod bu...**

A) maqsadga etish uslubi;

B) bilish quroli (vositasi);

V) o‘rganilayotgan ob‘yektning sub’ekt tafakkurida qayta gavdalanish uslubi;

S) barcha javoblar to‘g‘ri.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning II-bobi yuzasidan bildirilgan fikrlarga asoslangan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, barcha fanlar qatori mantiq ilmini o‘rganishda ham hususan, “Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar” mavzusini o‘qitishning uslubiy jihatlarini bevosita innovatsion va interfaol ta’lim metodlaridan foydalangan holda talabalarga tushuntirish yuqari samara beradi. Yuqorida qayt etib o‘tilgan metodlar orqali ma’ruza va seminar dars jarayoni tashkil etilsa, talabalarning ham darsga bo‘lgan qiziqishlari ortadi hamda fan o‘qituvchisi ham bu orqali talabalarni mustaqil fikrlashga, o‘z-o‘zini baholashga, muayyan vaziyatlarga tahliliy yondashishiga yordam beradi hamda guruhdagi barcha talabalarning faol qatnashishashga erishadi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Ma'lumki hozirgi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarning barchasiga inson qadr – qimmati, uning axloqi, madaniyati nuqtai nazaridan qarashni taqozo etmoqda. Mantiq fani ham bundan istisno emas. Inson hayotining sifatini yaxshilash uning moddiy, ma'naviy, ayniqsa axloqiy ravnaqi, sog'lom turmush tarzi, mustaqil, erkin fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lish bilan bog'liq.

Inson muammosini hal qilishda, ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan, mantiq ilmi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, hozirgi jamiyatga xos murakkab ijtimoiy munosabatlarni, qilinayotgan muhim ilmiy kashfiyotlarni tushunib etish uchun yuqori darajadagi mantiqiy fikrlash madaniyatga ega bo'lish lozim.

O'quv qo'llanma natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz:

Birinchidan, mantiqfanini o'rganish va o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb ilmiy-uslubiy masalalar qatoridan o'rinni olgan bo'lib, interfaol ta'lim metodlardan foydalanib dars o'tish talabalarga to'g'ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qoidalarini o'zlashtirishga hamda ularning mustaqil fikrlash madaniyatini yuksaltirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, mantiq fani rivojlanishining dolzarb nazariy va amaliy masalalarini tadqiq qilishda ushbu fanni o'qitishda ilg'or ta'lim texnologiyalari va innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyatini yoritish hamda fanning ta'limiy dasturi mazmunini ochib berish, takomillashtirishga alohida o'rinni ajratish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, mantiq fani bo'yicha ta'lim jarayonida har bir mashg'ulot turi va mazmuni xususiyatidan kelib chiqib, o'ziga xos va mos texnologiyalarni, metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, "Tushunchalarni shakllantiruvchi mantiqiy usullar" va tafakkurning asosiy qonunlarini to'g'ri tushunishlari orqali xato fikrlarning paydo bo'lish sabablarining oldi olinadi, ularning oq-qorani tushunib etishiga, buzg'unchi g'oyalar bilan yaratuvchi g'oyalarni ajrata oladigan bo'lishiga erishiladi.

Beshinchidan, talabalarda xulosaviy bilimlar hosil qilish, muammolarni yaratish va hal etish, farazlarni ilgari surish va asoslash usullari, qoidalari bilan tanishtirish imkoni yaratiladi.

Oltinchidan, talabalarga muloqatda bo‘lish va ayniqsa, savol-javob qilish, bahs yuritish sir-asrorlarini o‘rgatish hamda ilmiy bilimlarning mantiqiy tuzilishlari hamda ilmiy nazariyalarning mantiqiy tuzilishi bilan tanishtirish bulajak kadrlarni kelajakda o‘z o‘rnini topishida va jamiyatga foydasi tegadigan ishlarni amalga oshirishiga zamin yaratadi.

Mantiq fanini oliv ta’lim muassasalarida o‘qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan olingan umumiy xulosalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni berishimiz mumkin:

- 1) Mantiq fanining o‘rganilishi va o‘qitilishi bo‘yicha tayanch OTM bo‘lgan O‘zbekiston Milliy universitetida fanga oid amalga oshirilayotgan nazariy-metodologik, ilmiy-uslubiy va tashkiliy ishlar tajribasini ommalashtirish hamda mamlakatimiz OTMlarida mantiq faniningsamarali o‘qitilishida, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda tadbiq etish;
- 2) Amaldagi “Oliy ta’limning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalaridagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki mazmuniga qo‘yilgan davlat talablari” mazmunidan kelib chiqib, joriy holatni tanqidiy o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, sohaga oid innovatsiyalarga asoslanib, mantiqni joylarda o‘qitilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarga barham berish;
- 3) Fanning o‘quv dasturi ta’lim jarayoni uchun me’yoriy xujjat ekanini fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini tuzishda metodik ko‘rsatmalar va yo‘riqnomalarning etarli emasligini hisobga olib, OTM larda o‘quv dasturlarini tuzish va ularni bir me’yorga keltirish uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan fanning namunaviy va ishchi o‘quv dasturlarini tartibga soladigan maxsus uslubiy yo‘riqnomasi ishlab chiqilishi va amalga joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

## **“Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari” mavzusini o‘rganish bo‘yicha glossariy.**

### **A**

**Absolyut aynanlik** – metafizik filosofiyada ishlataladigan termin bo‘lib, bu ta’limotga ko‘ra predmet hamma vaqt o‘z-o‘ziga tengdir. Bu prinsip ontologik nuqtai nazardan voqelikka ziddir. Chunki narsa va hodisalar har doim rivojlanib turadi. Demak, narsalar o‘z-o‘ziga teng bo‘lmay qoladi.

**Abstraksiyalash**(lot. abstractio – uzoqlashuv, mavhumlik) – tushuncha hosil qilishning muhim usullaridan. Abstrakciyalash yordamida buyum va hodisalarning muhim xususiyatlarini fikran ajratamiz va ularni buyumlar, hodisalarning ikkinchi darajali va ahamiyati kam xususiyatlaridan chetlashtiramiz.

**Abstrakt tushuncha** – buyumlarning ayrim belgilari, munosabatlarini fikran ajratib,tushunchada aks ettirilishi. Masalan, «botirlik», «tozalik» kabi.

**Absurd** – (lot. bema’ni, behuda) – biror tezisni isbotlashda uchraydigan mantiqiy xato. Bunday xato (redictio ad absurdum) biror mantiqqa zid bo‘lgan bema’ni xulosaga kelish deb ataladi.

**Avtomatik mantiq** – matematik mantiqning maxsus sohasi bo‘lib, diskret boshqarish sistemasi haqidagi ta’limotdir.

**Agnostisizm** (grek. a – yo‘q, gnosis – bilish, bilib bo‘lmaydigan) - dunyoni bilib bo‘lmaydi, degan ta’limot bo‘lib, unga ko‘ra inson narsalarning mohiyatini bilishga, ular xaqida aniq bilimga ega bo‘lishga qodir emasdir.

**Ajratib ko‘rsatuvchi hukm** – ma’lum belgi faqat o‘scha predmetga tegishli ekanini ko‘rsatuvchi hukm.

**Aylantirish** (lot. abversio) - bevosita hulosa chiqarish bo‘lib, bunda tasdiq hukm inkorga yoki inkor tasdiq hukm holiga keltiriladi. Aylantirish natijasida hukmnинг sifati o‘zgaradi, lekin mazmuni saqlanib qoladi.

**Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukm** – bir necha hukmlar yoki (v) bog‘lovchi orqali murakkab hukmni tashkil etadi. Bu ikki xil: qat’iy ayiruvchi va oddiy ayiruvchi hukm ko‘rinishda bo‘ladi.

**Ayiruvchi (diz'yunktiv) sillogizm** – katta asos ayiruvchi hukmdan, kichik asos va xulosa esa qat'iy hukmdan iborat bo‘ladi, uning ikki xil modusi bor.

**Ayniyat qonuni (lot. lex indentitatis)** - formal mantiqning asosiy qonunlaridan bo‘lib, bu qonunga ko‘ra muhokama jarayonida ma’lum predmet to‘g‘risidagi fikr hajm jihatidan barqaror muayyanlikni saqlashi kerak. Bu qonun fikrni aniq ifodalashni talab qiladi. Muhokamada har bir tushuncha aynan bir ma’noda ishlatilmog‘i lozim. Uning formulasi A=A dir.

**Aksioma (grek. axioma – qabul qilingan holda)** – ma’lum nazariyani isbotlash uchun isbotsiz qabul qilingan tushuncha. Mantiq fanida aksioma isbotsiz qabul qilingan haqiqat ma’nosida ishlatiladi. U ilmiy nazariyalarning deduktiv hulosalar chiqarish yordamida tashkil topish usullaridan biri. Shuning uchun «deduktiv metod» va aksiomatik metod ko‘pincha aynan tushunchalar sifatida ishlatiladi.

**Al’ternativa (lot. alternare – almashmoq, navbat bilan qilmoq)** – mumkin bo‘lgan qarama – qarshi ikki yoki bir necha holdan tanlab olish zaruriyati. Mantiqda ayiruvchi hukmning har bir qismi al’ternativa bo‘la oladi.

**Analiz va sintez** (grek. analysis – ajratish, bo‘lish va qo‘sish, birlashtirish) Analiz yordami bilan buyumlar, hodisalar fikran qismlarga bo‘linadi. Sintezda esa qismlar fikran birlashtirilib, bir butun holiga keltiriladi.

## B

**Birga bo‘ysunish** - tushunchalar o‘rtasidagi munosabat.

**Butun va bo‘lak** – ob’yektiv olamdagи narsa va hodisalarning o‘zaro aloqasi, predmet va ularning elementlari o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatuvchi falsafiy kategoriya.

## G

**Genezis (grek. genesis – kelib chiqish)** - ma’lum predmet va hodisalar to‘g‘risidagi fikr hamda mulohazalarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, tug‘ilishi.

**Genetik metod** – predmet, hodisalarning kelib chiqishi va rivojlanishini tahlil qilish asosida tadqiq etish usuli.

**Genetik ta’rif** – ta’riflanayotgan buyumning kelib chiqishini ko‘rsatuvchi ta’rif.

**Gnoseologiya** (grek. gnosis – bilsits, logos - ta’limot) – bilish nazariyasi, filosofiyaning muhim sohasi:

## D

**Demonstratsiya** (lot. demonstratio - ko‘rsatish) – isbotlash jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, isbotlashning qanday usulda amalga oshirilishini ifodalaydi.

**Deontik mantiq** – normativ tilning mantiqiy tuzilishini o‘rganuvchi mantiq. Shuningdek, normativ tushunchalar haqidagi ta’limot hamdir. Deontik mantiq modallik mantiqining bir qismi sifatida ham qaralib, mantiqning «albatta», «ruxsat etilgan», «befarq», «taqiqlangan» kabi xususiyatlarning funktsiyalarini o‘rganadi. Deontik mantiq buyruq formasidagi ifodalarni o‘rganadi.

**Deontik modallik** – «albatta», «ruxsat», «baribir» kabi modallik usullarini o‘z ichiga olgan fikrlarga xarakteristika berishdan iborat. Deontik modallik huquqshunoslik, etika kabi fanlarning ham o‘rganish ob’yektiidir.

**Definiция (lot. definitio - ta’rif)** – **tushunchani ta’riflash**.

**Dialektika** (grek. dialegomai – suhbat olib bormoqdaman, muhokama qilmoqdaman) – rivojlanish to‘g‘risidagi falsafiy konsepsiya. Voqelik hodisalari ularning ichki rivojida, ziddiyatlar taqozosi bilan yuz beradigan o‘z harakatida deb o‘rgatadigan bilish nazariyasi va metodi.

**Dialektik mantiq** – tafakkur harakatining umumiy qonunlari va formalari haqidagi fikr bilan ob’yektiv reallikni bilish yo‘llari to‘g‘risidagi, ya’ni falsafiy kategoriyalarning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etuvchi fan.

**Dilemma (grek. di – ikki marta; lemma – gap, ikkilangan gap)** – shartli-ayiruvchi sillogizmning shakllaridan biri.

**Diskussiya (lot. discussio – tekshirish, tahlil qilish)** – birorta muammoni muhokama qilish, u bo‘yicha bahs , tortishuv, munozara qilish.

**Dixotomik bo‘lish** (grek. dicha – va, home – ikki qismga ajratish) – tushunchalarning hajmini ikkita bir-biriga zid bo‘lgan qismga mantiqan bo‘lish.

## Ye

**Yetarli asos qonuni** (lot. lex rationis determinantis siue sufficientis) - formal mantiq qonunlaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra har qanday chin fikr isbotlangan bo‘lishi , to‘g‘riliqi isbotlangan boshqa bir fikrga asoslanishi kerak.

## J

**Jins** – bir sinfga kiruvchi predmetlarning mantiqiy tavsifi bo‘lib, bu sinf o‘z ichiga boshqa tur sinflarni qamrab oladi. Masalan: “daraxt” tushunchasi mevali va mevasiz daraxtlarga nisbatan jins bo‘lib, unga kiruvchi “mevali”, “mevasiz” lar daraxtning turlaridir.

**“Jins va tur” tushunchalari** - ularda hajmi katta tushuncha unga bo‘ysunadigan hajmi kichik tushunchaga nisbatan jins va aksincha, hajmi kichik tushuncha u bo‘ysunuvchi hajmi katta tushunchaga nisbatan tur tushuncha bo‘ladi.

**Juz’iy gipoteza** – gipotezaning turi bo‘lib, u ayrim olingan faktlar asosida tahlil qilinadi. Ammo bunda ayrim hodisalarning sababi tahlili beriladi, xolos. Shunga ko‘ra u hodisalarning sababini ohib beruvchi umumiy ilmiy gipotezadan farq qiladi.

## I

**Idrok** – ayrim buyum va hodisalarni yaxlit holda aks ettiruvchi psixik jarayon.

**Ijobiy mantiq** – hozirgi zamon noklassik mantiq oqimi bo‘lib, fikrlash jarayonida inkor etish amalini qo‘llamaydi. Uning o‘rniga implikatsiya, kon’yunksiya, diz’yunksiya va ekvivalentlikdan foydalanadi.

**Ijobiy va salbiy tushuncha** – tushunchalarning mazmun jihatdan turlari bo‘lib, ijobiy tushunchada predmet o‘zida mavjud belgi orqali ifodalansa, salbiy tushuncha o‘zida yo‘q belgi yordamida ifodalanadi.

**Izchillik** – mantiqiy tafakkurning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, fikrlash jarayonida tartibni, ya’ni fikr oddiydan murakkabga qarab,yoki aksincha yuritilishini talab qiladi

**Izchillik bilan bo‘lish** – tushunchani bo‘lishning asosiy sharti bo‘lib, bo‘lish sakrashlarsiz, tartib bilan amalga oshsin deb ko‘rsatadi.

**Individ** (lot. individuum - bo‘linmas) – ayrim bo‘linmaydigan yakka, mustaqil mavjudot. U yakka tushuncha ma’nosida ham ishlataladi. Tushunchalarni chegaralash

natijasida bo‘linmas yakka tushunchalarga kelamiz. Ushbu atama yakka shaxsga nisbatan, matematik mantiqda esa ayrim predmet, ob’yektlarni qisqacha ifodalash uchun ham ishlataladi.

## K

**Klassifikatsiya** – (lot. *classis* – turkum, *facio* - bajaraman) predmetlarni muhim belgilariga qarab turkumlash. Bunda predmetlar bir-biriga o‘xshashligi va farqiga qarab sinflarga bo‘linadi hamda joylashtiriladi. U tabiiy va sun’iy, ilmiy va yordamchi turlarga bo‘linadi.

**Konstruktiv mantiq** – hozirgi zamon matematik mantig‘ining oqimlaridan biri bo‘lib, u voqelikni konstruktsiya qilish asosida o‘rganadi.

**Kuzatish** – bevosita idrok qilish orqali narsa va hodisalarini qanday bo‘lsa, shundayligicha tabiiy asosda o‘rganish metodi. Kuzatish o‘zining aktivligi, maqsadga qaratilganligi bilan oddiy idrokdan farq qiladi.

## L

**Logitsizm** – mantiqni matematika uchun hal qiluvchi deb hisobovchi oqimdir. Bu oqim tarafdarlari matematikani mantiq tushunchalari bilan izohlash mumkin deb qaraydilar. Logitsizm tarafdarlari mantiq bilan matematikani ikki fan deb emas, balki bir fanning rivojlanishidagi ikki bosqich deb qaraydilar. Ingliz faylasufi B. Rassel, nemis matematigi va faylasufi G. Fregelar logitsizmning asoschilaridir.

## M

**Mantiq** – (grek. *logos* – so‘z, fikr, nutq, aql) tafakkur qonunlari va shakllari haqidagi fan. Mantiqning predmeti tafakkurdir.

**Mantiqiy xato** – tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash jarayonida tafakkur qonuni va shakllarini buzish natijasida kelib chiqadigan xato.

**Mantiqiy qarama-qarshilik** – fikrlash jarayonida Nozidlik qonunini buzish natijasida kelib chiqadigan chalkash muhokama.

**Mantiqiy qonunlar** – to‘g‘ri tafakkur qonunlari.

**Mantiq qonunlari** – inson tafakkuriga xos qonunlar. Mantiq qonunlari ob’yektiv olamning inson ongidagi in’ikosidir. Formal mantiqning to‘rtta asosiy

qonuni bor: ayniyat, nozidlik, uchinchisi istisno, etarli asos qonunlari. Bu qonunlar to‘g‘ri fikrlashning zaruriy shartidir.

**Matematik mantiq** – matematikaning bir yo‘nalishi bo‘lib, u fikrlash jarayonini o‘rganishga matematik metodni qo‘llaydi. Matematik mantiq formal mantiq rivojining yangi bosqichi bo‘lib, u an’anaviy mantiqdan so‘ng mustaqil soha bo‘lib maydonga keldi.

**Muhim belgi** – predmet va hodisalar mavjudligi uchun zarur bo‘lgan belgi.

## N

**Nom** – predmet, hodisa, jarayonlarning tildagi ifodasi. Nom yakka predmetlarni (Toshkent, Aal- Xorazmiy), bir guruh predmetlarni (xalq, o‘rmon), hodisa va jarayonlarni (tinchlik, sezgi) aks ettirishi mumkin. Nom problemasi bilan mantiq fanidada G. Frege batafsil shug‘ullangan.

**Nominal ta’rif** – (lot. definitio nominalis) – tushunchada ifodalangan so‘zning ma’nosini aniqlash. Nominal chetdan kirgan so‘zlarining ma’nosini aniqlash, ilmiy aylanmaga yangi terminlar kiritish uchun ham ishlatiladi.

**Nomuhim belgi** – predmetning mavjudligi uchun zarur bo‘lmagan belgi.

## O

**Ob’yekt** (lot. objectum - predmet) – ayni paytda ongimizdan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan, bizning ongimiz predmeti bo‘lgan narsa va hodisalar.

**Ob’yektiv mantiq** – ongimizdan tashqarida bo‘lgan reallikning rivojlanishi, aloqasi, munosabati. Sub’ektiv mantiq ana shu ob’yektiv olamning inson ongidagi in’ikosidir.

**Ob’yektiv reallik** – inson ongidan tashqarida turuvchi tabiat, jamiyat, butun moddiy dunyo va uning turli tomonlari, insonning o‘zi, anglash qobiliyati, uning tabiat va boshqa odamlar bilan munosabati.

**Ob’yektiv haqiqat** – bilimlarimizning ongimizdan tashqarida mavjud bo‘lgan mazmuni uning voqealikka mos, adekvat kelishidir. Haqiqatning mazmuni esa ongimizga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir.

**Omonimlar** – shaklan bir xil, ammo mazmunan bir necha tushunchani ifodalovchi so‘zlar.

**Ostensiv ta'riflash** –(lot.ostendere - ko'rsatmoq) -predmetni bevosita ko'rsatish orqali ta'riflash.

## R

**Ratsionalizm** (lot. rationalis - aqliy) – bilish nazariyasida aqlni haqiqiy bilimning birdan bir manbai deb hisoblovchi oqim.

## T

**Tafakkur** – voqelikni abstraktlashtirishi va umumlashtirib bilishdan iborat bo'lgan insonning aqliy, nazariy faoliyati.

**Tafakkur shakllari** – ob'yektiv olamdagi eng umumiylar jarayonlarning aks etishi asosida paydo bo'lgan amaliy fikrlashning tuzilishi. U tushuncha, hukm, xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

**Taqqoslash** – buyum va hodisalarining o'xshashli va farqli tomonlarini aniqlashga qaratilgan mantiqiy usul.

**Ta'riflash** – tushunchalarning mazmuni ochib beruvchi ta'rif ikki asosiy qismdan: aniqlovchi va ta'riflovchi tushunchalardan iborat bo'ladi.

**Ta'riflashga o'xhash mantiqiy usullar** – 1) ko'rsatish; 2) tasvirlash; 3) tavsiflash; 4) o'xhatish; 5) tafovutlash; 6) taqqoslash, misol keltirib tushuntirish.

**Tradition mantiq** – Arastuning mantiqiy ta'limotiga asoslanadi. Arastu sillogizm nazariyasiga asos soldi va xulosa chiqarishning deduktiv metodini ishlab chiqdi. Ingliz faylasufi F. Bekon (1561 – 1626 yillar) esa induktiv metodni ishlab chiqadi. SHunday qilib traditsion mantiq vujudga kelgan.

**Trixotomiya** (grek. triha – uchga, toma - maydalash) – tushunchalar hajmini uchga bo'lish. Matematik mantiq va aksiomatik nazariyada to'plamning trixotomik aksiomasi mavjud.

**Tushuncha** – predmetlarning umumiylarini muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli.

**Tushunchalarning asosiy turlari** – tushunchalar hajmiga va mazmuniga ko'ra turlarga bo'linadi. Hajmiga ko'ra yakka, umumiylar, bo'sh, to'plovchi va ayiruvchi tushunchalar mavjud. Mazmuniga ko'ra esa: konkret va abstrakt, nisbatdosh va nisbatsiz, musbat va manfiy tushunchalar mavjud.

**Tushunchalarni bo‘lish** - tushunchalar hajmini qism (tur) larga ajratish yo‘li bilan aniqlovchi mantiqiy usul.

## U

**Uchinchisi istisno qonuni** - Bir-biriga zid bo‘lgan ikki fikrdan biri hamisha to‘g‘ri (chin) bo‘lib, ikkinchisi xatodir, uchinchisi bo‘lishi mumkin emas. Uning formulasi: $A \vee \neg A$ . Formulaning o‘qilishi: A yoki A emas

## F

**Falsafa**(grek. phileo – sevaman va sophia - donolik) - dunyoni tafakkurning borliqqa bo‘lgan munosabati asosida o‘rganuvchi ta’limot bo‘lib, u insonning jamiyatdagi roli, uning dunyoqarashi to‘g‘risida bahs yuritadi.

**Formallashtirish** – ma’lum ob’yektning mazmunini uning shakli orqali ifodalovchi ilmiy bilish metodi

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

### **Nazariy-metodologik manbaalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O‘zbekiston” 2020.
2. O‘zbekiston Respubliksi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T: “O‘zbekiston” 2020 y. 30-dekabr
3. O‘zbekiston Respubliksi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T: “O‘zbekiston” 2019 y.
4. O‘zbekiston Respubliksi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – T: “O‘zbekiston” 2018 y.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi №PF-4947-sonli Farmoni.
9. “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ-2909 - sonli Qarori, 2017 yil 20 aprel.
10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. 2-nashr -T.: Ma’naviyat, 2016.
11. “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № 4732-sonli Farmoni, 2015 yildagi 12 iyul.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № 242-sonli Qarori.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Nazarov Q. Falsafa asoslari. –T.: O'FMJ, 2018.
2. Topildiev V.R. Ta'lismi va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari. –T., 2015.
3. Pulatova D. Fayzixo'jaeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma.T.: 2013.
4. Fayzixo'jaeva D. Forobiy va Ibn Sino mantiqiy isbotlash haqida.T., 2013
5. Sharipov M. Gegel va zamonaviy dialektik mantiq.//O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materillari T., 2013.
6. Ishmuhamedova R. Yuldasheva M. Ta'lismi va tarbiya innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.: Nihol, 2013
7. Sharipov M. Mantiq. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati, 2012.
8. Stepanova O.I. Логика: задачи и упражнения – T.: Universitet 2011.
9. To'raev B.O. Logika: masalalar va mashqlar. –T.: 2009.
10. Sharipov M. , Fayzixo'jaeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma, -T., 2004.

### **Elektron ta'lismi resurslari:**

1. **WWW.LOGIK.ru**
2. **WWW.logic.Pdmi.ras.ru**
3. **www.Logic.philos.msu.ru**
4. **www.Ziyo net.uz**
5. **www.faylasuf. uz**

**NADIROVA ZOYIRA PAYANOVNA**

**XAKIMOVA MAXRUYA ABDULXAYOVNA**

**“TUSHUNCHА” TAFAKKUR**

**SHAKLI SIFATIDA**

**(Uslubiy qo‘llanma)**

**Muharrir:**

**M.Mustafayeva**

---

Bosishga ruhsat etildi: Qog‘oz o‘lchami 60x84 – 1/16

Hajmi: 4,3 bosma taboq 10 nusha. Buyurtma № \_\_\_\_\_

TIQXMMI-MTU bosmaxonasida chop etildi

Toshkent 1000000 Qori Niyoziy ko‘chasi 39-uy